

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 5, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 5, ISSUE 6



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2022) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2022-6>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек
масбул котиб, доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек
отв. секретарь, доцент (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek
Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Daminova Orzigul INGLIZ TILIDA ASPEKTUALLIK XUSUSIDA.....	4
2. Isaqova Munisa XALQARO HUQUQIY TERMINLARNING LESIKOGRAFIK TALQINI.....	9
3. Baxodirova Shaxlo ABDULLA QODIRIYNING LEKSIKOGRAFIYA BORASIDAGI FAOLIYATI, QARASHLARI.....	14
4. Ганиева Дилдорахон МОДАЛ ВА КЎМАКЧИ ФЕЪЛЛАРНИНГ СИНКРЕТИК ҲАМДА ПОЛИФУНКЦИОНАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	21
5. Bayram Bilir O‘RXUN BITIKLARIDA I HARFI VA YOPIQ È TOVUSHINING YEVROPALİK VA RUS TURKOLOGLARI TOMANIDAN TRANSKRIPSIYASI.....	24
6. Jumanova Shohista TARJIMONNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI (CHO‘L PONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARI MISOLIDA).....	28
7. Сулайманова Нилуфар ВОЗНИКНОВЕНИЕ КАТЕГОРИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ ОЦЕНКИ В ИМПЛИЦИТНОЙ ФОРМЕ.....	33
8. Ҳазраткулиён Дилшодаи Фарходзод ЎЗБЕКИСТОН ТОЖИК АДАБИЁТИДА МАДЕҲА ШЕЪРИ РИВОЖИ ҲАҚИДА.....	42
9. Qodirova Fazilat, Ayakulov Nurbek, Ayakulova Aziza PROBLEMS OF SYNONYMY AND ANTONYMY OF TERMS – THEORETICAL REVIEW.....	49
10. Ахмедова Дилдора ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ЭТИМОЛОГИК ЛУҒАТИ – КОРПУС СЕМАНТИК КЕНГАЙТМАСИНИНГ АХБОРОТ БАЗАСИ.....	53
11. Абдусаламова Лобар Акбар кизи ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ ИЖОДИНИ ДАВРЛАШТИРИШ МАСАЛАСИГА ДОИР: ОДОРОКОЛОРИСТИК МОТИВЛАРНИ ЎРГАНИШ АСПЕКТИДА.....	58
12. Yusupova Guzal Rashitovna NARRATIV TRANSFORMATSIYALAR NI KOYA NUTQINI MODELLASHTIRISHNING ASOSIY VOSITALARIDAN BIRI SIFATIDA.....	63




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Daminova Orzigul Bektoshevna
SamDCHTI tadqiqotchisi
orzuguldaminova.92@gmail.com

INGLIZ TILIDA ASPEKTUALLIK XUSUSIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tilida aspektuallik va uning xususiyatlari, aspektuallik va aspekt haqidagi turli yondashuvlar to'g'risida bayon qilinadi. Matn doirasida biror bir ma'lumotning kechishi, ya'ni boshlanishi, davomiyligi yoki tematik tugallanganligi ko'rsatish uchun aspektual kategoriyaga murojaat etishimizga sabab bo'ladi. Aspektuallik xususida tilshunoslarning turlicha qarashlari mavjud bo'lib, aspektual ma'nolarning o'rganilish tarixiga qisqacha nazar tashlanadi. Grammatik aspekt va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham bayon qilinadi. Shuningdek, odatda to'g'ri ajratish qiyin bo'lgan "aspektuallik"ning turli kichik kategoriyalarini farqlashga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Aspekt, aspektuallik, temoporallik, telik/ atelik (cheraralanganlik va chegaralanmaganlik), perfective va imperfective (tugalanganlik va tugallanmaganlik).

Даминова Орзигул Бектошевна
Научный сотрудник СамГИИЯ
orzuguldaminova.92@gmail.com

АСПЕКТУАЛЬНОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается аспектуальность и ее характеристики в английском языке, различные подходы к аспектуальности и аспекту. Прохождение какой-либо информации внутри текста, т. е. начала, длительности или тематического завершения, является причиной того, что мы обращаемся к аспектуальной категории. Существуют разные взгляды лингвистов на аспектуальность, дается краткий экскурс в историю изучения аспектуальных значений. Также описывается грамматический аспект и его особенности. Мы также пытаемся различать различные подкатегории «аспектуальности», которые обычно трудно различить должным образом.

Ключевые слова: Аспект, аспектуальность, темпоральность, телик\ ателик (ограниченность и неограниченность), перфектив\имперфектив (совершенный и несовершенный вид) .

Daminova Orzigul Bektoshevna
 Researcher of SamSIFL
 orzuguldaminova.92@gmail.com

ASPECTUALITY IN ENGLISH

ANNOTATION

This article describes aspectuality and its characteristics in English, different approaches to aspectuality and aspect. As we know, while learning the text, we come across that every action has its beginning, duration or thematic completion, in order to explain this situation we have to address aspectual category. There are different views of linguists regarding aspectuality. Besides that, there are also described grammatical aspect and its specific features. We also try to distinguish between various sub-categories of "aspectuality", which are usually difficult to distinguish properly.

Key words: Aspect, aspectuality, temporality, telic/atelic, perfective and imperfective.

Jahon tilshunosligida tilning amaliy qo'llanishi, uning ijtimoiy mohiyati tadqiqiga keng e'tibor qaratilmoqda. Pragmalingvistika, soslolingvistika, kognitiv tilshunoslik, matn tilshunosligi kabi sohalar doirasida keng qamrovli tadqiqotlarning olib borilayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Tilni lisoniy tadqiqot qilishning ushbu yo'nalishlarida tilning kommunikativ jarayondagi amaliy ko'rinishi muammolarini o'rganish yetakchi o'ringa chiqadi. Shu jumladan, aspektual ma'noning matnda ifodalanishi, uning muloqot muhitidagi mavqeyini aniqlash, ushbu hodisalarning kognitiv-konseptual mohiyatini belgilash, funksional imkoniyatlarini ochib berish, konseptual tasnifini yaratish muhim muammolardan hisoblanadi.

Aspektuallik hodisasi bilan bog'liq tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Mazkur yondashuvlar har bir tilning lingvistik xususiyatiga bog'liq. Aspektologiya grammatikaning bir bo'limi bo'lib, uning o'rganilishi qadim tarixga ega. V. N. Yarsevaning fikricha, antik davrdayoq aspektuallikka oid ilk qarashlar yuzaga kela boshlagan. Jumladan, Aristotel birinchi bo'lib, fe'llarning chegaralangan/chegaralanmagan aksional guruhlarini ajratib bergan. Keyinchalik fe'l shakllari ifodalaydigan ba'zi aspektual farqlarni Appaloniy Diskol (yunon tilida), Varron (lotin tilida) ko'rsatgan (Yarseva 1990: 412). Aspektuallik xususida turli xil ta'riflar mavjud bo'lib, Aspektuallikning keng va mukammal ta'rifi B. Comriening 1976-yildagi so'rovnomasida topilgan bo'lib, unda "aspektuallik bu vaziyatning ichki temporal tarkibini ko'rishning turli usullaridir" (Comrie 1976:3) deya ta'rif beradi.

Aspekt ham Grammatik ham leksik jihatdan qo'llanilishi mumkin. Grammatik aspektni aniqlash jiyda qiyin hisoblanadi. Bunga sabab esa, Grammatik aspekt kategoriyalarning semantik talqini ko'pincha, ular birikkan kesimlar (fe'l kesim, sifat kesim va nominallar)ga qarab o'zgarishidir.

Z. Vendler esa leksik aspektni 4 turga bo'lib ularning har biriga umumiy misollar keltirgan.

States: be polite, love, think

Activities: sing, dance, break

Achievements: shatter, reach

Accomplishments: cross (the street), read (the book)

Bu kategoriyalar stative (holat) va dynamic (process), durative (davomiy) va punctual (tugagan nuqatasiga ega) hamda chegaralanganlik va chegaralanmaganlik (telic yoki atelic) kabi 3ta semantik xususiyatlari bilan aniqlanadi (Mourelatos 1981:201-2).

Biz quyidagi 2ta misollar orqali vaziyatga xos xususiyatlarni to'g'ri tahlil qilish haqida so'z yuritamiz.

(1) I built a house - Men uy qurdim.

(2) I built houses- Men uylar qurdim.

Ikkala misol ham deyarli bir xil o'tgan zamonda ko'rsatilgan va shuning uchun ham (1) va (2) o'rtasida deyarli aniq farqlarni anglash qiyin. Ular o'rtasidagi farqli xususiyatlar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan. Bu xususiyat zamonning og'zaki kategoriyasiga xosdir. (Nutqda qo'llanilishiga xosdir)

	(1) I built a house	(2) I built houses
Temporal features	past tense	past tense
Aspectual features	perfective accomplishment telic	imperfective activity atelic

Ushbu jadval orqali biz (1) va (2) misollar uchun “temporal xususiyat” va “aspektual” xususiyatlarning umumiy ko’rinishini ko’rishimiz mumkin. (1) va (2) gaplarning tahlili ularni ajratish mumkin bo’lgan va ikkala gapning turli ma’nolarining bir nechta xususiyatlarini ochib beradi.

(1) gapdagi misolda “perfective aspect” dan foydalaniladi, ya’ni vaziyat “yagona tahlil qilib bo’lmaydigan butunlik” (Comrie 1976: 3) sifatida taqdim etiladi va uning ichki vaqtga xos strukturasi tahlil qilinmaydi. Bundan tashqari, (1) misoldagi gapda vaziyat turlarining Vendler tasnifiga taalluqli harakatning maxsus turi bo’lgan “accomplishment” nazarda tutiladi. (1) misolda ko’rsatilgan vaziyatga xos bo’lgan “telicity”, ya’ni aspektual chegaralanganlik xususiyati Vendler kontseptsiyasi (1957) bilan chambarchas bog’liqdir. Dowty (1979) vaziyatlarning o’ziga xos xususiyatlarini tavsiflash va vaziyat turlarini ajrata olish uchun ushbu aspektual parametrlar kontseptsiyasini ishlab chiqdi.

(2) misol “**I built houses**” gapi “imperfective aspect”da berilgan, ya’ni vaziyat ichki nuqtai nazardan taqdim etilgan va uning temporal xususiyatining tuzilishi tahlil qilinadi. “Vendler klassifikatsiyasiga” ga ko’ra, (2) misol “faoliyat”(activity) ni ko’rsatadi. Bundan tashqari, ushbu turdagi vaziyatga “atelic” aspektual parametrini kiritish mumkin. Shuning uchun 2 misoldagi gap birinchi misoldagi gapni mutlaqo teskarisini ifodalaydi.

Ushbu misollardan ko’rinib turibdiki, aspektuallik asosan fe’llarga, ya’ni kesimlarga xos tushuncha ekan. Bundan tashqari biz aspektuallikni, gapning matndagi ma’nosidan anglashimiz ham mumkin ekan.

Aspektual vaziyat aspekt (вид)ning tugallanganlik/tugallanmaganlik, fe’llarning chegaralanganlik /chegaralanmaganlik, davomlilik, karralilik, fazaviylik, perfektivlik kabi aspektual ma’nolardan tashkil topadi. Bundan tashqari aspektual vaziyat zamon kategoriyasi bilan bog’liq bo’lgan lokativlik/nolokativlik hamda taksis kabilarni o’ziga qamrab oladi (Bondarko, 2002: 302 – 303).

O’zbek tilshunoslari ham aspektuallik xususida o’z qarashlarini bayon etishgan. Aspektual vaziyatlar tilshunoslar tomonidan turli tillar doirasida o’rganilgan. Aspektual vaziyat deganda gapdagi til vositalari yordamida ifodalanadigan aspektual ma’nolar (harakatning boshlang’ich fazasi, yakuniy nuqtaga intilishi, harakat oqimi yoki harakatning tugallanishi kabilarni)ni tushunish mumkin (Rizaev,1999:39).

Bizningcha ham muallifning qarashlari aspektual vaziyat mohiyatini qamrab oladi, ya’ni har bir jumla o’zining boshlanish, davom etish va yakuniy nuqtasiga ega bo’ladi. Shu jumladan tarkibida esa ma’noni to’ldirish uchun turli lisoniy, leksik va grammatik vositalardan foydalaniladi. Shuningdek, aspektuallik ma’nosini anglatuvchi barcha vositalar orqali aspektual vaziyat hosil bo’ladi.

Bundan tashqari, G’.Mirsanov ham aspektuallikka doir ko’plab ma’lumotlarni bayon etgan. G’.Mirsanovning aspektuallikka xos fikrlari yuqoridagi fikrga o’xshash. U aspektual vaziyat deganda gapdagi til vositalari yordamida o’z aksini topadigan aspektual ma’nolarni (harakatning boshlang’ich fazasi, yakuniy nuqtaga intilishi, harakat oqimi yoki harakatning tugallanishi)ni tushunadi. Shuningdek, olim aspektual vaziyatlarning bir necha turlarini ko’rsatib bergan. Jumladan, harakatning boshlanishini “inxoativ aspektual vaziyat”, takroriy harakatni “iterativ aspektual vaziyat”, o’rta oqimda bo’lgan harakatni “protsessual aspektual vaziyat”, tugal nuqtaga yetgan harakatni “terminativ aspektual vaziyat”, harakatning tugallanib biror natijaga kelinganligini “natijaviy aspektual vaziyat” kabi nomlar bilan atagan (Mirsanov, 2009: 61).

R. Jakobson (1957: 493) ta’rifiga ko’ra, aspektuallik “faoliyat yoki holatning o’ziga xos bo’lgan temporal qiymati bilan bog’liqligidir”. Aspektuallik “fe’lning harakati davomiyligining usuli va yo’lini belgilovchidir” (Brugmann 1904: 493) deb ham ta’riflar berilgan. L.J.Brinton (1988: 5) “Shunday qilib, aspektual tadqiqotlarni ikkita bir-biridan farq qiluvchi tendensiyalarga ajratib

ko'rsatish mumkin: biri og'zaki nutqning grammatik ma'nosiga, ikkinchisi esa fe'llarning va ularning to'ldiruvchilarining leksik ma'nosiga e'tibor qaratadi.

Demak, bu fikrlar shuni anglatadiki, aspektuallikda vaqt hamda ma'no, fe'llarning o'zaro bog'lanishi muhim ahamiyatga ega. Aspektuallik xos turli yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, bu hodisa ikki xil aspektual kategoriyalarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi, ikkalasi ham vaziyatning o'ziga xos aspektual ma'nosini anglatadi. Ta'riflarda ta'kidlanganidek, bir komponent aspektual qarashlarga urg'u bersa, ikkinchisi esa vaziyatlarning turiga taalluqlidir.

B. Comrie (1976:3) aspektni "ichki temporal komponent (constituency)" to'g'risidagi turli qarashlar sifatida ta'riflaydi. U perfective va imperfective o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib, imperfective ma'noni oddiy va davomiy ma'noga, ikkinchidan esa progressiv bo'lmagan va progressivga ajratadi. Comriening tasnifi shuni ko'rsatadiki, vaziyatni "tashqi nuqtai nazardan, tugallangan (perfective) yoki ichki nuqtai nazardan davom etayotgan (imperfective) sifatida ko'rish mumkin" Aspektni tadqiq etish mobaynida, perfective ma'no bilan bir qatorda imperfective ma'noning ham tavsifini berish kerak, chunki ikkalasi ham aspekt qiymatlarining asosiy kategoriyalarini ifodalaydi (Brinton 1988: 52).

Perfective vaziyatlarni bir butun sifatida taqdim etilishini ko'rsatadi. Bu vaziyatga faqat tashqi tomondangina kuzatishni anglatadi. Comriening so'zlariga ko'ra, "butun bir vaziyat boshi, o'rtasi va oxiri birlashgan holda, tahlil qilib bo'lmaydigan yagona yaxlitlik sifatida taqdim etiladi; bu vaziyatni harakatini tashkil etuvchi turli individual bosqichlarga bo'lishga hojat yo'q"(Comrie 1976: 3).

Boshqa tomondan esa, imperfective ichki temporal strukturaga qaraydigan ichki fikrlarni ifodalaydi. Aspektual jihatdan, A. Kibort (2008) "perfectivlik va imperfectivlik vaziyatlarning obyektiv xususiyatlari emas, shuning uchun ham bir xil vaziyatni ikkala tomondan ham taqdim etish mumkin" deb ta'kidlaydi.

(3) John read that book yesterday.

(4) While he was reading the book, the postman came. (Kibort 2008)

Quyida keltirilgan misollar (3) va (4) aspektlardagi farq bilan ifodalangan bir xil vaziyatni ko'rsatadi. (3) tashqi nuqtai nazardan taqdim etilgan perfective vaziyatni tasvirlaydi, (4) esa ichki nuqtai nazardan taqdim etilgan imperfective vaziyatni tasvirlaydi.


Xulosa

Biz keltirilgan fikrlarga qo'shilgan holda, aspektuallikni quyidagicha talqin etamiz: aspektuallik fe'llarga, kesimlarga xos tushuncha bo'lib, faqatgina turli lisoniy va leksik turdagi vositalar yordamida shakllanadigan vaziyatdir. Bundan tashqari aspektual harakat tarzlari o'zining boshlanish, davom etishi, takroriyliigi va yakuniy nuqtasiga ega bo'lib, aspektual chegaralanganlik/chegaralanmaganlik (atelic/telic, bounded/unbounded), tugallanganlik/tugallanmaganlik (perfective/imperfective), terminativlik/protsexualik bilan kontekstda o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yarseva V.N. Лингвистический энциклопедический словарь. — М.: Сов. Энциклопедия, 1990. -412b
2. Comrie B. Aspect: An Introduction to the Study of Verbal Aspect and Related Problems; Cambridge University Press, 1976, 3p
3. William Craft. Verbs aspect and causal structure; Oxford Universty Press; 2012, 33p
4. Mourelatos, Alexander P.D. Events, processes and states. In tense and aspect. New York : Academic Press; 1981. 201-202
5. Vendler Z. Verbs and times; The Philosophical Review: Duke University Press; 1957, 146p
6. Bondarko A.V. Теория значения в системе функциональной грамматики: На материале русского языка/ Рос. академия наук. Ин-т лингвистических исследований культуры. 2002. 302-303
7. Rizayev V.X. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. Фан, 1999. 39

8. Mirsanov G'.Q. Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarining aksional va aspektual xususiyatlari: Filol.fan.nomz.diss. Samarqand. 2009. -61b
9. Jakobson R. Shifters, verbal categories, and the Russian verb. Massachusetts: Harvard University Press. 1957. -449p
10. Laurel J. Brinton. The Development of English Aspectual Systems: Aspectualizers and Postverbal Particles. Cambridge: Cambridge University Press, 1988. -52p
11. Anna Kibort, article, Modelling "the perfect", a category between tense and aspect. University Oxford. 2008.



ISSN: 2181-9297


www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Isaqova Munisa

O'zRFA O'zbek tili, adabiyotiva
folklori instituti tayanch doktoranti
hoshimovamunisxon@gmail.com

XALQARO HUQUQIY TERMINLARNING LESIKOGRAFIK TALQINI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATASIYA

Terminologiya yoki umumiy qilib aytganda terminologik leksika lug'atlarning shu bilan birga umumtil leksikasining tarkibiy qismi sifatida filologik lug'atlarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Lekin turli tipdagi lug'atlarda aynan bir terminga berilgan ta'riflar mohiyatan bir xil bo'lmasligi mumkin. Shu jihatdan sohaviy terminlarning leksikografik tadqiqini amalga oshirish dolzarbdir. Ushbu maqola xalqaro huquq doirasida keng qo'llanuvchi terminlarning leksikografik jihatdan tahliliga bag'ishlangan. Terminlarning o'zbek tilining izohli lug'atida berilgan definitsiyalari taqqoslanib, ularning ba'zi jihatdan farqlanishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, bir nechta xalqaro huquqiy terminlarning yangi ma'nolari misollar yordamida yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Terminologiya, xalqaro huquq, leksikografik talqin, amnistiya, deklaratsiya.

Isakova Munisa Kahramon qizi

UzRFA Institute of Uzbek language
literature and folklore Basic doctoral student
e-mail:hoshimovamunisxon@gmail.com

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF INTERNATIONAL LEGAL TERMS

ANNOTATION

Terminology as in general terminological lexicon is the object of study of philological dictionaries as a component of dictionaries as well as universal lexicon. But the definitions of the same term in different types of dictionaries may not be essentially the same. In this regard, it is important to carry out a lexicographical analysis of terms widely used in international law. The definitions of terms given in the explanatory dictionary of Uzbek language are compared, and their differences in same aspects are scientifically based. Also new meanings of several international legal terms are explained with examples.

Key words: terminology, international law, lexicographic interpretation, amnesty, declaration.

Исакова Муниса Кахрамон кызы

УзРФА институт литературы и фолклора
узбекского языкаю Базовый докторант

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНО ПРОВАВЫХ ТЕРМИНОВ

АННОТАЦИЯ

Терминология вообще терминологическая лексика является объектом изучения филологических словарей как составной части универсальной лексики словарей. Но определения одного и того же термина в словарях разных типов могут существенно различаться. В связи с этим представляется важным провести лексикографическое исследование полевых терминов. Данная статья посвящена лексикографическому анализу терминов широко используемых в международном праве. Сравниваются определения терминов данные в толковом словаре узбекского языка и их различия в некоторых аспектах имеют научное обоснование. Также на примерах объясняются новые значения некоторых международно прововых терминов.

Ключевые слова: терминология, международно право, лексикографическое интерпретация, амнистия, декларация.

Ijtimoiy hayotning turli sohalari bo'yicha xalqaro hamkorlikning kengayib borishi bevosita tilga, uning tarkibiy qismi hisoblangan terminologiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Zotan, terminologiya muloqot jarayonida axborot manbai, turli ixtisosliklarni o'zlashtirish, ilmiy texnik hayotni jadallashtirish, huquqiy ongni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Turli tillarga xos universal xarakterdagi terminlarni takomillashtirish, xalqaro terminlarni zarur holatda milliy til imkoniyatlari darajasida tarjima qilish, mavjud bo'lsa muqobillarini izlash yoki asl holda o'zlashtirish mezonlarini ishlab chiqish murakkab va shu bilan bir qatorda muhim masaladir. Ayni vaqtda mazkur masalalar aniq faktlarga asoslangan ko'plab tadqiqotlarda yechimini topmoqda. Milliy tilga o'zlashgan muayyan terminlarning umumfilologik izohli lug'atlarda, sohaviy terminologik lug'atlarda, ensiklopedik lug'atlarda yoki tarjima lug'atlarda berilgan definitsiyasi(izohi) o'rtasidagi farqlarni Shcherba ham ko'rsatib o'tgan va aniq misollar bilan dalillagan edi.[12. 280]. Umimfilologik, tarjima va izohli lug'at tuzuvchi lug'atshunoslar esa terminga birinchi navbatda so'z sifatida yondashib, uning o'ziga xos umumiy belgilarini hisobga olgan holda izohlaydilar va izohda terminning mutaxassis tomonidan tayin qilingan barcha belgilarini emas, balki uning eng muhim, eng asosiy belgilarini aks ettirish bilan kifoyalanadilar. Demak, "terminologik lug'atda muayyan bir soha terminologiyasini imkoni boricha qamrab olish va shu sohada shakllangan ilmiy tushunchalar tizimini mantiqan izchil tavsiflash maqsadga muvofiq bo'lsa, izohli lug'atning vazifasi umumxalq tilining leksik semantik tizimini muayyan til jamoasida qanday mavjud bo'lsa shundayligicha tavsiflashdan iborat." [13, 281] Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, u yoki bu terminologik lug'atda mavjud bo'lgan so'zlarning barchasi emas balki muayyan tor fan sohasidan kelib chiqib, u yoki bu darajada umumxalq tilining mulkiga aylanganlarigina kiritilishi mumkin. Izohli lug'atlarga termin tanlashda uning maxsus qo'llanish doirasidan kelib chiqqanligi, umumiste'molda keng tarqalganligi va tushunarligi asosiy mezon qilib olinadi. Biroq Respublikamizning hozirgi rivojlangan sharoitda jamiyatning iqtisodiy- ijtimoiy, ma'rifiy-madaniy hayotida ta'lim tizimida ro'y bergan va ro'y berayotgan o'zgarishlar shuningdek, mamalakatimizning xalqaro miqiyosda yanada o'z mavqeyini mustahkamlab borishi tufayli yangi paydo bo'lgan tushunchalarni, binobarin, ularni ifodalovchi neoterminlarni vujudga keltirmoqda. Bunday terminlar va neologizmlarning ba'zilar hozircha umumiste'molga keng kirib bormagan bo'lsa-da, mamlakat Prezidenti va hukumat qarorlari, rasmiy hujjatlar va davriy matbuot sahifalari orqali keng jamoatchilikka ma'lum. Bunday neologizmlar ayniqsa huquqiy sohada keng qo'llaniladi. Yangi o'zbek tilining izohli lug'atida adyunktura, denominatsiya, akkreditiv, agressiya, agreman, sanatsiya, legitimatsiya, alyans, amnistiya, diskreditatsiya, plebistsit, ratifikatsiya, sanktsiya, subordinatsiya, senzura, kassatsiya, vindikatsion da'vo, rehabilitatsiya kabi va yana boshqa bir yuzlab terminlar va terminologik birlikmalarning joy olishi birinchidan, yuqorida zikr etilgan omillarning ta'siri natijasi bo'lsa, ikkinchidan, lug'at tuzuvchilarning o'zbek tili leksikasida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lib ularni o'z vaqtida lug'atda qayd etganliklaridan dalolat beradi. Ayni vaqtda tilshunosligimizda yuridik terminologiya sohasiga oid

salmoqli ilmiy ishlar yaratilgan. Biroq huquqiy terminosistema doirasida xalqaro huquqiy terminlarning izohli, tarjima, ensiklopedik lug'atlarda berilishini o'rganish o'z tadqiqini kutayotgan masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan tadqiqotimiz materiali sifatida 1981 yilda va 2006-2008 yillarda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" olindi. Lug'atlarda berilgan ayrim xalqaro huquqqa oid terminlar izohi aynan o'xshash, ayrimlari esa turlicha berilganligini ko'rish mumkin.

Masalan:

I. Arbitraj [fransuzcha arbitrage- hakamlik sudi] Arbitraj: Ikki korxonaga yoki idora o'rtasida janjalli masalalarni tomonlarning roziligi bilan tayinlangan arbitr yoki arbitrlar sudida ko'rib bartaraf qilish usuli. Davlat arbirtaji esa idora va korxonalar o'rgani[15, 350]

II.Nizoli masalalarni hal qilish uchun maxsus tashkil etilgan va doimo faoliyat ko'rsatuvchi sud o'rgani.

Foyda olish maqsadida bir valyuta bozorida sotib olingan xorijiy valyutani kursdagi farqiga qarab ikkinchi valyuta bozorida sotib olish

III.Arbitraj:nizolashayotgan tomonlar sudga murojaat qilish o'rniga uchinchi shaxsdan o'z dalillarini tinglashni so'ragan va keyin ularga rioya qilishga rozi bo'lgan qaror qabul qiladigan jarayon.[15, 79]

Yuqorida keltirilgan misollarda ushbu termin umumiy ma'noda nizolarni xalqaro miqiyosda hal etishga qaratilgan jarayon ma'nosini ifodalab kelgan. O'zbek tilining ikki jildli va so'nggi yillarda tahrirlangan besh jildi izohli lug'atida berilgan ta'riflarda nisbatan ma'no mushtarakligi sezilib turadi. Biroq 2006yilda qayta tahrirlanib nashr etilgan lug'atda so'zning qamrovi ko'lami kengayganligi va yangi sema ifodalaganligini ko'rish mumkin. Shuningdek arbitraj termini hozirgi kunda ham keng qo'llaniladigan xalqaro huquqiy terminlardan biri sifatida deyarli barcha mustaqil davlatlar tomonidan maxsus tashkil etilgan organlariga ega. Jumladan AAA-Amerika arbitraj assotsiatsiyasi, HKIAC-Gongkong xalqaro arbitraj sudi, LCMA-London xalqaro arbitraj sudi, SIAC- Singapur xalqaro arbitraj sudi, DEAC- Dubay xalqaro arbitraj sudi va hokazo.

Yana bir xalqaro huquqda keng qo'llaniladigan terminlardan biri amnistiya terminidir. O'zbek tilining izohli lug'atidagi ta'riflarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu termin umumiy ma'noda afv etish ma'nosini anglatadi.

I. Amnistiya- (grekcha) jazoga hukm qilinganlarning oliy hokimiyat farmoni bilan qisman yoki butunlay ozod qilinishi, afv etilishi; afv [14, 275]

II. Amnistiya- (yunoncha amnestia-unutish; kechirish) Oliy hokimiyat qarori bilan muayyan toifadagi sudlangan shaxslarning jazosini yumshatish yoki ularni jazodan ozod etish. [15, 450]

Huquqshunoslikka oid sohaviy terminologik lug'atlardan ham mazkur termin ta'rifini o'rganish natijasida besh jildli izohli lug'atda amnistiya terminining izohi to'laroq ochib berilganligini va bir qator ilustrativ misollar bilan boyitish orqali so'zning ma'nosi yaqqollashganligini sezish mumkin. Yana bir diqqatga sazovor jihati shundan iboratki, ikki jildli izohli lug'atda berilgan definitsiyada asosiy ma'no atenkasi afv so'zida namoyon bo'ladi. Bu jihat esa so'zning qo'llanish jihatidan chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Aksariyat hollarda amnistiya va afv bitta tushunchani ifodalaydi, afv so'zi amnistiya terminining o'zbek tilidagi tarjimasi degan qarashlar mavjud.

Amnistiya va afvning farqlari bo'yicha taqqoslama jadval.

	Farqlovchi omillar	Amnistiya	Afv
	Kim qabul qiladi?	Oliy Majlis Senati (Prezident taqdimiga binoan)	Prezident
	Kimlarni qamrab oladi?	Mahbus, mahkum, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jazoni o'tab bo'lgan shaxslar	Mahbus, mahkum va jazoni o'tab bo'lgan shaxslar
	Kimlarga qo'llanadi?	Nomuayyan shaxslar guruhi(ma'lum bir shaxslar toifasi)	Muayyan shaxslarga

Kechirish hujjatining tashabbuskori kim bo'ladi?	Davlat	Mahkum yoki uning vakili
Shaxsiy millar (tavsif) qaroriga ta'sir qiladimi?	Qisman	To'liq

Bizning nazarimizda amnistiya so'zini har qanday holatda ham afv etish ma'nosida qo'llash to'g'ri bo'lmaydi. Bu jihatdan ham besh jildli lug'atda amnistiya so'zining izohini yoritishda afv so'zining ishlatilmaganligi ham yuqoridagi fikrlarimizning tasdig'idir.

Xalqaro huquq doirasida qo'llanish doirasi jihatidan yuqori o'rinda turuvchi terminlardan yana biri deklaratsiya so'zidir. Izohli lug'atlarda esa ushbu terminga berilgan izohlar ham hajman ham mazmunan o'zgachaligini kuzatish mumkin.

I. Deklaratsiya- (lotincha) Biror bir siyosiy masala yuzasidan rasmiy sur'atda e'lon qilingan bayonnoma hukumat yoki partiya tantanali suratda e'lon qilgan asosiy prinsiplar, qonun qoidalar. Rossiya xalqlari huquqi to'g'risidagi deklaratsiya

II. Deklaratsiya- (lotincha declaration ma'lum qilish, bildirish e'lon qilish) 1. Xalqaro huquqda va siyosat sohasida tomonlar(bir necha hukumatlar , siyosiy partiyalar , xalqaro tashkilotlar va shu kabilar) tarafidan ma'qullangan dasturiy hujjat, muhim xalqaro voqea , qonun va boshqalar yuzasidan asosiy umumsiyosiy tamoyillarni tantanali e'lon qilish. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik deklaratsiyasi.

2. Soliqqa tortiladigan fuqaroning muayyan davrda olgan daromadlari turi va miqdori holidagi ma'lumotnomasi.

3. Pochta orqali xorijga yuboriladigan pul va qimmatbaho buyumlarda ularning qiymati va xil-xususiyatini ko'rsatayotgan holda qo'shib jo'natiladigan pochta hujjati.

4. Chegara orqali olib o'tilayotgan narsalar qimmatbaho buyumlar va ularning miqdori haqida bojxonaga taqdim etiladigan ma'lumotnoma.

Xulosa qilib aytganda, bunday terminlar sharhini huquqshunoslikka oid sohaviy terminologik lug'atlar bilan qiyoslash orqali besh jildli izohli lug'atda yuqoridagi kabi xalqaro huquqqa oid terminlarning ma'nosi aniq va tugal, kengaytirilib berilganligi lug'at tuzuvchilarning mahoratini yana bir bor namoyon qiladi. Yana bir e'tiborli jihati aynan deklaratsiya terminiga berilgan misollarning ta'riflar bilan to'laqonli moslanganligi va tushunarligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari besh jildli izohli lug'atda berilgan ta'riflarda bu so'z nafaqat yuridik termin balki, bojxona va aloqa terminologiyasining tarkibiga kiritilishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бакиров Ф. Некоторые вопросы узбекской юридической терминологии. – Тошкент, 1956; Тошкент,
2. Бакиров Ф. Юридик терминлар луғати. – Тошкент, 1959;
3. Бердияров Ш.Н. Икки палатали парламент шароитида қонунчилик техникаси (назария, методология, амалиёт): Юрид.фан. номз....дис. – Тошкент, 2009;
4. Бойко Л.М, Законодательная техника (теория и практика). Автореф. канд. юридик. наук. –
5. Гуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филология фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 2004;
6. Саидов А., Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994;
7. Саидов А., Саидова Л., Кўчимов Ш., Қосимова М. Қонун ва тил. – Тошкент: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1997.
8. Касимова М. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1986;
9. Каримова Л.А. Правовые нравственные аспекты законов о языке. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Тошкент, 1991;

10. Хайитов Х. Қонун ижодкорлигида юридик лингвистиканинг ўрни ва аҳамияти. Юрид. фан. номз. ... дисс. – Тошкент
11. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол. фан. номз....дис. – Тошкент, 1995;1
12. Щерба Л. В. Опыт общей теории лексикографии. Л.1974.С. 280.
13. Малаховский. Л.В. Ко'rsatilgan asar. 281-bet
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jildli. Ijild. –M
15. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jildli. I jild. –Toshkent: O'ME. 2006




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Baxodirova Shaxlo Baxodirovna,
Chirchiq davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti,
E-mail:Shaxlo.bakhodirova@mail.ru

ABDULLA QODIRIYNING LEKSIKOGRAFIYA BORASIDAGI FAOLIYATI, QARASHLARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Abdulla Qodiriy tilshunoslikning leksikografiya sohasida ham birmuncha salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Yozuvchining barcha asarlari tili o'ziga xos bo'lib, bu asarlar tili lingvistik aspektda jiddiy tadqiq etilishi lozim. O'z faoliyatida amalda lug'atchilik bilan ham shug'ullangan-lug'at tuzishda ishtirok etgan. Xalq tilida, shevalarda mavjud bo'lgan so'zlarni yig'ish, to'plab olish borasida jiddiy qayg'urgan. Abdulla Qodiriy ijodi, asarlari ko'plab yangi-yangi tadqiqotlar uchun manba – obyekt bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: umumxalq tili, lug'atchilik, uslub, nutq madaniyati, imlo.

Baxodirova Shaxlo Baxodirovna,
Basic doctoral student of Chirchik State Pedagogical Institute,
E-mail:Shaxlo.bakhodirova@mail.ru

ABDULLAH QADIRI'S ACTIVITY AND VIEWS ON LEXICOGRAPHY

Abstract: Abdullah Qadiri has also done significant work in the field of lexicography of linguistics. The language of all the author's works is unique, and the language of these works should be seriously studied from a linguistic point of view. In practice, he was also involved in compiling a dictionary. He took great care to collect the words that were available in the vernacular. Abdullah Qadiri's work is a source of inspiration for many new studies.

Key words: vernacular language, lexicography, style, speech culture, spelling.

Баходирова Шахло Баходировна,
Докторант Чирчикского государственного педагогического института,

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ВЗГЛЯДЫ АБДУЛЛЫ КАДИРИ НА ЛЕКСИКОГРАФИЮ

Аннотация: Абдулла Кадири также проделал значительную работу в области лексикографии языкознания. Язык всех произведений автора уникален, и язык этих произведений следует серьезно изучить с лингвистической точки зрения. Он также занимался лексикографией и участвовал в составлении словарей. Его очень беспокоил набор слов на просторечии. Работа Абдуллы Кадири является источником вдохновения для многих новых исследований.

Ключевые слова: просторечие, лексикография, стиль, культура речи, орфография.

Kirish. Abdulla Qodiriy tilning lugʻat tarkibi bilan ish tutishda (ularni aniqlash, toʻplash, saralash, tahlil qilish kabilarda) har bir tilning oʻziga xos xususiyatlarini saqlab berishga ham rioya qilish lozimligini taʼkidlaydi. Koʻrinadiki, til lugʻat tarkibining oʻzgarib turishi masalasi ham, tilning lugʻat tarkibi bilan ish tutishda har bir tilning oʻziga xos xususiyatlari hisobga olinishi zarurligi masalasi ham eng muhim va juda jiddiy nazariy masaladir. Ana shu masalalar Abdulla Qodiriy tomonidan toʻgʻri talqinini topgan. Abdulla Qodiriy, aynan, (bizningcha) til lugʻat doimiy muammoligicha turuvchi, bir nazariy fikrni toʻgʻri talqin etadi: "Hamma til ham qoʻshni tillardan "qarz" oladi. Busiz iloji yoʻq. Asar faqat oʻz tilidagina yozilsa shirasiz, quruq chiqadi. Yozuvchi oʻz xalqining tilini, folklorini kamol oʻrganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa, yaqin qoʻshni tillarni, bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi, asari jonlanadi". (Matn "Yodnoma"dan olindi, 72-bet)

Malik Rahmon oʻzining "Toʻgʻrisoʻz ustoz" maqolasida "Oʻsha davrda (1930 - yillar) ishlarimizga Oʻzbekiston fanlar komitetining boshligʻi Otajon Hoshimov katta yordam qilgan edi. Abdulla Qodiriy, Sanjar Siddiq va Nabi Alimuhammedovlar lugʻatlar tuzishda juda katta xizmat qiladilar. Oʻzbek tilining besh tomlik ruscha-oʻzbekcha lugʻati shular ishtirokida dunyoga kelgan edi.

Abdulla Qodiriyning atamalar sohasida katta xizmatlarini eʼtiborga olib, shu sohada-terminkomga bosh maslahatchi – konsultant etib tayinlandi, deb yozadi.

Abdulla Qodiriyning lugʻat tuzishda ishtirok etganligi uning "Lugʻat pudratchiligi va quruq rasmiyat", deb ataluvchi "Shoʻro yozuvchisining xati"dagi quyidagi fikrlari ham tasdiqlaydi: "Soʻngra Oʻznashr tazyigʻi ostida kollektiv aʼzolari bilan kelishib tuzilgan shartnoma asosida "P" xarfini ishlab berishni -soʻrab (P harfi bilan boshlanuvchi barcha soʻzlar nazarda tutilyapti) menga murojaat qiladi. Men qabul qilaman, bir qancha vaqtlar oʻtirib "P" harfini tuzib chiqaman. Kollektiv qabul qilib oladi... "11" harfidan 497 soʻzdan boshqasi ("P"ni taxminan 11000 soʻz deyaalik. A.Q.) Abdulla Qodiriy tomonidan ishlangan. Bunda Saidovning hech qanday aloqa va xizmati yoʻq. Oʻznashr hisobni Abdulla Qodiriy bilan yurguzsin" mazmunli qaror chiqarib nusxasini Oʻznashrga yuboradi. Oʻznashr kollektivning qaror va murojaatiga iltifot qilmaydi. Biz formal ravishda Abdulla Saidovni taniymiz, siz bilan ishimiz yoʻq, sudga beringiz dedi. Ish, xizmat meniki, Oʻznashr arxivida saqlangan asl qoʻlyozma meniki: ammo bu mehnat baravariga haq olish "vijdonli" Saidovniki" ("Diyor bakr", 390-bet).

Habibulla Qodiriy otasi Abdulla Qodiriyning lugʻatchilik bilan ham shoʻgʻullanganligini bir oʻrinda qayd etib oʻtadi: "1926-yildan boshlab Qodiriyning qizgʻin kundalik matbuotchilik faoliyatlari asta susaya bordi. Biron idoraga (redaksiyaga) bogʻlanib ishlashdan voz kechadilar... Faqat munosabati kelsa, baʼzan-baʼzan maqolalar, felyetonlar yozadilar, oʻquv kitoblari, qishloq xoʻjalik risolachalarini tarjima qiladilar, tahrir, lugʻat tuzish kabi ishlar bilan va asosan uy-xoʻjalik, dehqonchilik, bogʻdorchilik, qish kezlarida esa asta "Mehrobdan chayon" romanini yozish bilan shugʻullanadilar" ("Otam haqida", T., 1983, 118-b.)

Abdulla Qodiriyning lugʻatchilik bilan ancha jiddiy shugʻullanganligini, bu borada ancha tajribaga ega ekanligini yana Habibulla Qodiriyning quyidagi fikrlaridan ham toʻla anglash mumkin: "...Yodimda shu shiypon tagiga gʻisht terilayotganida Yudaxin familiyali bir rus kishi dadamni soʻrab keldi va rus boʻlishiga qaramay, u hamma usta-mardikorlar bilan "horma, bor boʻl" qilib oʻzbek tilida soʻrashib chiqdi. Yudaxin sharqshunos, shu yillarda birinchi oʻzbekcha-ruscha lugʻat tuzar va shu munosabat bilan Qodiriydan baʼzi bir maslahatlar olgani biznikiga kelgan ekan... U portfelidan bir dasta qogʻoz chiqarib dadamga koʻrsatgan edi. Qogʻozlarda qator qilib arab alifbosida oʻzbekcha va ruscha soʻzlar yozilgan edi. Yudaxinning 15 000 soʻzlik bu lugʻati 1927 yilda bosilib chiqdi..." (Oʻsha kitob, 121-bet)

Yudaxin kabi shevashunos, yirik tilshunosning oʻz vaqtida Abdulla Qodiriydan soʻzlar izohlarini berishda maslahat olishi, albatta, bejiz emas. Yozuvchi yuqorida qayd etilganidek, lugʻat tuzish boʻyicha maʼlum tajribaga ega boʻlgan edi. Oʻgʻillari Habibulla Qodiriy oʻzining "Otam haqida" kitoblarida, haqiqatan ham, Abdulla Qodiriyning "Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzli lugʻatning 11 000 soʻzdan iborat "P" harfini tuzganligini alohida qayd etadi: 1933-yilning kech kuzagi edi, shekilli, dadam bir-ikki oy bosim oʻtirib, "Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzli lugʻat"ning "P" harfini

tuzdilar. Yodimda, u kishi sandalda o'tirib atroflarida o'nlab rus, o'zbek, arab, turk lug'atlarini yozib ko'yib, alfavit bo'yicha kitoblardan yangi so'zlar izlar va topib yozgach, lug'atlardan unga, yana ma'no qidirar edilar... Lug'at 1934-yil yozida lotin alifbosida bosilib chiqdi..." (159-bet) Bu o'rinda berilgan 11 000 so'z deyish to'g'ri emas, aslida 11 000 bo'lishi kerak.

Abdulla Qodiriyning so'z, uning ma'nosi, izohlanishi, yozilishi haqidagi – fikrlari, bu masalalar bo'yicha qarashlari ham, adibning to'g'ri yozish, so'z ma'nolarini to'la anglagan holda qo'llash masalalariga jiddiy e'tibor berganini ko'rsatadi: "— Haqiqatdan qochib, tilga yangi qoidalar tuzish razolatdir, o'rtoq!" (G'ozini Yunusga nisbatan aytilgan fikr — Y.T.); "Men "So'zda iqtisodsizlik", deb "Mushtumning nihoyatda serso'z va kam ma'no ekanini murod tutgan edim. Mulla G'ozini bo'lsa "Iqtisodsizlik" zamirida tilimizning ishlanmaganini, uslubsizlikni va tag'in allanima balolarni ko'rsata kelib: "Bu kun imlochilarning har biri bir boshqa imlo bilan yozganda bir jumla so'zni, o'n kishi o'n xil tuzadir", deb o'zini kulgi bir holga qo'yadir. Sizga muallimlik qilmayman-ku, biroq aytib o'taman: bir jumla so'zni, albatta, o'n kishi o'n xil tuzadir (bu o'rinda bir fikrni o'n kishi o'n xil shaklda ifodalashi mumkinligi haqida, deb tushunish kerak — Y.T.). Siz buni bir xil yozmaydi, deb aytmangki, uyat. Agar qabul qilsangiz, bir ma'noni anglatgan bir jumlaning o'n kishi tarafidan o'n turli yozilishi siz aytgan imloning tuzalishiga hech bir vaqt qaramaydurg'an tabiiy bir qonundir. Imlo tuzalgach, kishilar bir tuz, bir surat va bir bo'yda tug'iladirlar, deb qarash, ayniqsa, sizga — G'ozini Yunusga yarashmaydir..." (O'sha kitob, 252-bet).

(Aytish kerakki, albatta, bu o'rinda ikki adib nutqlaridagi tub mohiyatni tushunishda yondashish boshqacha bo'lgan. Ya'ni G'ozini Olim so'zlarning to'g'ri yozilishi bo'yicha imlo qoidalaridagi har xillik haqida fikr yuritisa va to'g'ri yozish bo'yicha imlo qoidalari pishiq ishlanmagan taqdirda, so'zni turli xil yozish holati yuz berishi haqida fikr yuritgan bo'lsa, Abdulla Qodiriy har bir ijodkorning bir fikrni turli xil ifodalashi — jummalarni har xil tuzishi mumkinligini haqida — uslubiyat haqida fikr yuritib, G'ozini Olimni ana shuning farqiga bormaganlikda ayblayaptiki, bu oddiy anglashilmovchilik bo'lgan. Bu o'rinda o'z tushunishicha, G'ozini Olim ham hakdir, o'z tushunishicha, Abdulla Qodiriy ham hakdir – Y.T.). Shuningdek, "falagimizga tushkan shung'iyalar" yoki palagimizdan shung'iya chiqdi"; palagimizni shung'iya bosdi birikmalarining yozilishi haqida gap borganda ham, har ikki adibning yondashuvlarida har xillik kuzatiladi: 1) G'ozini Olim palak so'zining falok tarzida yozilishiga e'tiborni qaratsa, A.Qodiriy shung'iya chiqdi, shung'iya tushdi, shung'iya bosdi birikmalaridagi chiqdi, tushdi, bosdi so'zlarining qo'llanish-ishlatilish holatiga e'tibor beradiki, bu ham anglashilmovchilik oqibatidir. Shunga qaramay, gap to'g'ri jumla tuzish, so'z ma'nolarini farqlab turib qo'llash haqida borayotganligining o'zi biz uchun qimmatlidir. Chunki bu narsa A.Qodiriyning har bir so'z uning ma'nosi, qo'llanishiga e'tibor berganligini tasdiqlovchi holatlardir.

Abdulla Qodiriyning so'z, so'z qo'llash, uning ma'nolariga e'tibor berish borasida qayd etgan fikrlari uning "Moskov xatlari"da ham o'z ifodasini topgan, "Endi bu uch gazetamiz imlosi ustida darozlik (qo'li uzunlik, kuch ko'rsatish-A.Q.) qilaylik: ...surnaychilardan bittasi mashq qilib turgan ekan, shu vaqt savili ham (orqa, ket – A.Q.) ham qo'shilishib yuboribdir. Bu bemaza mashqdan achchig'langan surnaychi, surnayini qo'lga olib- Yo san chal yo man chalay! – degan.

Shunga o'xshash bizning imlolarimizning "unisi qosin-u va yo bunisi!". Shu choqqacha bu to'g'rida so'z aytuvchi birorta bemaza mardikor yo'qligi ajoyib bir hodisadir. Hozirgi gazetalarimizdan olgan taassurotim shugina, boshqa gaplar boshqa vaqtga..." (Gap "Farg'ona", "Zarafshon", "Ko'mmunist" gazetalaridagi xato jumlar haqida borgan – Y.T.)

Abdulla Qodiriy "Ko'mmunist" gazetasida "...loyihaning og'urlashtirilganligini so'zladilar gapidagi og'ur so'zini og'ir tarzida yozilmaganligini, mo'pirning xitobasi birikmasidagi mo'pir so'zining mo'pr yoki xitobasi so'zining xitobnomasi tarzida yozilmaganini chegirish so'zi o'rnida guzasht tarzida berilganligini jiddiy tanqid qilar ekan, imloga bo'lgan o'z munosabatini bildirib o'tadi.

Xullas, Abdulla Qodiriy o'z ijodiy faoliyatida lug'atlar yaratishning muhimligiga, til bilish, so'zlarning ma'nolariga, qo'llanishlariga, yozilishi masalasiga, imlo borasidagi muammolarga alohida to'xtalgan bo'lsa-da, o'rni bilan eng zarur fikrlarni aytib o'tgan. Muammolarga o'z munosabatini bildirib o'tgan. O'z faoliyatida amalda lug'atchilik bilan ham shug'ullangan-lug'at

tuzishda ishtirok etgan. Xalq tilida, shevalarda mavjud boʻlgan soʻzlarni yigʻish, toʻplab olish borasida jiddiy qaygʻurgan. Xalq tili bilan adabiy tilni yaqinlashtirish, uni umumxalq tilidagi birliklar bilan boyitishi kerakligini toʻgʻri anglagan va taʼkidlagan, targʻib qilgan. Shu yoʻl bilan oʻzbek adabiy tilining rivoji uchun oʻz hissasini qoʻshgan.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.Rahmon. “Oʻzbek romanchiligining shoh asarlari” (“Adabiyot, badiiyat, abadiyat”, T., 2004 y.)
2. Y.Tojiyev. “Til jozibasi” (A.B.A., T., 2004 y.)
3. Malik Rahmon. Qodiriyning qoʻmsab. “Toʻgʻrisoʻz ustoz” T., 1994-y. 49-bet.
4. I.Qoʻchqortoyev “A.Qodiriy asarlarining tili haqida” (Oʻzbek tili va stilistikasi”, T., 1972 y.
5. Habibullo Qodiriy. “Otam haqida”, T., 1989 y.
6. O. Sharafiddinov. “Birinchi moʻjiza” T., 1979-y.
7. Abdulla Qodiriy “Diyori bakr” kichik asarlar toʻplami. “Yangi asr avlodi”, 2007-y.
8. Umarali Normatov. “Qodiriyning soʻnggi iltijosi” T., 2014-y.
9. Pirmul Qodirov. Xalq tili va realistik proza, T., 1973 y.
10. Y.Tojiyev va boshqalar. “Oʻzbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari” T., 2006-y.
11. Fathiddin Nasriddinov. “Mahorat jilolari” (risola), “Bilim jamiyati”, №18, 1974 y.
12. Qodirova Xurshida Botirovna. Abdulla Qodiriyning efemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati”.nom.diss., T., 2012 y.



Ганиева Дилдорахон Азизовна,
Андижон давлат университети докторанти,
филология фанлари номзоди, доцент

МОДАЛ ВА КЎМАКЧИ ФЕЪЛЛАРНИНГ СИНКРЕТИК ҲАМДА ПОЛИФУНКЦИОНАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада агглютинатив ва флектив тилларда ёрдамчи феъллар гуруҳи ҳақида сўз юритилган. Хусусан, инглиз тилидаги модал феълларнинг ҳамда ўзбек тилидаги кўмакчи феълларнинг синкретик табиати ёритилиб, уларнинг полифункционал хусусиятлари **can** ва **could**, **бил** ва **ол** феъллари мисолида таҳлил этилган. Агглютинатив тилларга мансуб ўзбек тилида модал феъллар гуруҳи ажратилмайди. Бир қатор манбаларда феълнинг нокатегориал шакллари икки турга бўлиниши, биринчи гуруҳ ўз ичига феълнинг функционал шакллари олиши, иккинчи гуруҳ феълнинг модал шакллари деб аталиши таъкидланади.

Калит сўзлар: бирламчи ёрдамчи феъллар, модал феъллар, модаллик, синтетик ва аналитик модал шакллар, синкретиклик, полифункционаллик.

Ганиева Дилдорахон Азизовна,
докторант Андижанского государственного университета,
кандидат филологических наук, доцент

СИНКРЕТИЧЕСКИЕ И ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МОДАЛЬНЫХ И ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ ГЛАГОЛОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается группа вспомогательных глаголов в агглютинативных и флективных языках. В частности, выделяется синкретический характер модальных глаголов в английском языке и вспомогательных глаголов в узбекском языке, а также анализируются их полифункциональные свойства на примере глаголов **can** и **could**, **бил** и **ол**. В узбекском языке, относящемся к агглютинативным языкам, не выделяется группа модальных глаголов. В ряде источников отмечается, что некатегориальные формы глагола делятся на два типа, к первой группе относятся функциональные формы глагола, а ко второй группе относятся модальные формы глагола.

Ключевые слова: первичные вспомогательные глаголы, модальные глаголы, модальность, синтетические и аналитические модальные формы, синкретичность, полифункциональность.

Ganieva Dildorakhon Azizovna,
Doctoral student of Andijan State University,
PhD in Philological Sciences, Associate Professor

SYNCRETIC AND POLYFUNCTIONAL FEATURES OF MODAL AND AUXILIARY VERBS

ANNOTATION

This article discusses about the issues on auxiliary verbs in agglutinative and inflectional languages. In particular, the syncretic nature of modal verbs in English and auxiliary verbs in Uzbek is highlighted, and their polyfunctional properties are analysed using the example of the verbs **can** and **could**, **bil** and **ol**. The Uzbek language, which belongs to agglutinative languages, does not have a group of modal verbs. In a number of sources it is noted that non-categorical forms of the verb are divided into two types, the first group includes functional forms of the verb, and the second group includes modal forms of the verb.

Key words: primary auxiliary verbs, modal verbs, modality, synthetic and analytical modal forms, syncretism, polyfunctionality.

Жаҳон тилшунослигида феъллар асосан тўлиқ, соф, лексик феъллар ва ёрдамчи, кўмакчи, модал феъллар каби икки гуруҳга бўлинади. Флектив тиллар гуруҳига кирувчи инглиз тилидаги соф ёки тўлиқ бўлмаган феъллар бирламчи ёрдамчилар ва модал феълларга бўлинади. Р.Деклерк бирламчи ёрдамчи феъллар ва модал ёрдамчилар ўртасидаги фарқни уларнинг семантик жиҳати билан боғлайди. Олим модал ёрдамчи феъллар истак, мумкинлик, рухсат, эҳтиёж, мақсад, мажбурият, тахмин, қобилият, аниқлик кабиларни билдириш учун қўлланишини таъкидлайди. Модал феъллар бирламчи ёрдамчи феъллардан семантик жиҳатдан фарқланиши, яъни улар грамматик функция бажармасдан, лексик маъно қўшиш учун хизмат қилишини айтиб ўтади. Шунингдек, “Бироқ уларнинг лексик маънолари лексик феълларникига нисбатан унча аниқ эмас ва кўпроқ ўринларда мувофиқ келади” [1]. Қуйида модал феълларнинг синкретик табиати ва полифункционал хусусиятлари ҳақида фикр юритамиз.

Инглиз тили грамматикасида феъл сўз туркуми доирасида муҳим аҳамиятга эга бўлган модал феъллар, юқорида айтиб ўтилганидек, ёрдамчи феъллар қаторида ўрганилади. “Модал ёрдамчи (Modal auxiliary [лотинча auxiliarius ‘ёрдам бериш’], (шунингдек, helping verb)). Асосий феълнинг инфинитив шакли билан боғланган ҳолда модал маънони ифодаловчи феълларнинг чегараланган кичик семантик тўплами... Модал феълларнинг иккита асосий функцияси – а) гапнинг эгаси ва феъл орқали тасвирланган ҳаракат ўртасидаги семантик муносабатни аниқлаштириш,...б) айтилган фикрга нисбатан сўзловчининг субъектив муносабатини ифодалаш” [2].

Агглютинатив тилларга мансуб ўзбек тилида модал феъллар гуруҳи ажратилмайди. Бир қатор манбаларда феълнинг нокатегориал шакллари икки турга бўлиниши, биринчи гуруҳ ўз ичига феълнинг функционал шакллари, иккинчи гуруҳ феълнинг модал шакллари деб аталиши таъкидланади. Синтетик ва аналитик шаклларга бўлинган модал шаклларнинг синтетик турида -ла, -ғила (-кила, -қила), -(и)мсира, -(и)нкира, -(и)ш қўшимчалари ёрдамида бундай шакллар ҳосил бўлиши, аналитик шакллар кўмакчи феълли ва тўлиқсиз феълли аналитик шаклларга бўлиниши айтиб ўтилади [3].

Ф.Польмер модал феълларни функциясига кўра уч гуруҳга ажратади: эпистемик, деонтик ва динамик. Бу учала функциянинг амал қилишини *can* ва *may* феъллари қатнашган қуйидаги учта гап орқали кўрсатиб беради:

John may be in his office – Жон офисида бўлса керак (эпистемик).

John may/can come in now – Жон ҳозир келиши мумкин (деонтик).

John can run ten miles with ease – Жон ўн километрга қийналмай югура олади (динамик).

Мазкур гапларни олим шундай изоҳлайди: “Бу учала гап ўртасидаги фарқ шундаки, биринчиси (эпистемик) Жоннинг офисда бўлиши мумкинлиги ҳақида ҳукм қилади, иккинчиси (деонтик) Жонга келиши мумкинлиги тўғрисида рухсат беради, учинчиси (динамик) Жоннинг 10 километрга қийналмай югура олиши ҳақида маълум қилади” [4].

М.Перкинз ҳам модал категорияларни Ф.Польмер каби эпистемик, деонтик ва динамик турларига ажратади ҳамда бунда эпистемикни рационал қонунлар доирасида аниқланадиган,

деонтикни ижтимоий қонунлар доирасида аниқланадиган ва динамикни табиат қонунлари доирасида белгиланадиган модаллик деб ҳисоблайди [5].

Инглиз тилшуноси П.Портнер ҳам модалликни эпистемик, динамик, шунингдек, муҳимлик (приоритет) турларига бўлади. Қуйидаги мисоллар орқали у ўз фикрларини изоҳлайди:

Эпистемик модаллик:

A typhoon may hit the island – Тайфун оролга уриши мумкин.

Mary must have a good reason for being late – Мэрининг кеч қолишига арзирли сабаб бўлиши керак.

Динамик (мўлжалланган) модаллик:

John can swim – Жон суза олади. (қобилият)

You can see the ocean from here – Сиз бу ердан океанни кўра оласиз. (имконият)

Mary will laugh if you tell her that – Мэрига буни айтсангиз, кулади (табийий мойиллик).

Динамик (ўлчовга асосланган) модаллик:

A spider can be dangerous – Ўргимчак хавфли бўлиши мумкин (мавжуд, экзистенциал)

A spider will be dangerous – Ўргимчак хавфли бўлади (универсал).

Муҳимлик (приоритет) модаллиги:

The rich must give money to the poor – Бойлар камбағалларга пул беришлари керак (деонтик).

You should try this chocolate – Сиз бу шоколадни тотиб кўришингиз керак (зарурий)

You should add some more salt to the soup – Сиз шўрвага озгина туз қўшишингиз керак (мақсадга йўналтирилган) [6].

Кўриниб турибдики, модалликка эпистемик ёндашув С.Гринбом, Ф.Польмер, М.Перкинз ва П.Портнернинг барчасига хос, деонтик ёндашув С.Гринбом, Ф.Польмер ва П.Портнерда учрайди, динамик модаллик ҳақида Ф.Польмер, М.Перкинз ва П.Портнер фикр юритади. Шу ўринда М.Перкинзнинг учала модаллик турлари тўғрисида рационал, ижтимоий ва табиат қонунлари доирасида баҳолаши модал феълларни умумлашган гуруҳларга ажратишда энг тўғри қараш, деб ҳисоблаш мумкин.

Умуман олганда, модал феълларни таснифлашда бундай хилма-хиллик, шунингдек, бир модал феълнинг бирдан ортиқ гуруҳга тааллуқли бўлиши мазкур феълларнинг синкретик табиатини изоҳлайди.

Can модал феълнинг бирламчи функцияси гапнинг эгаси орқали ифодаланаётган шахсда бирор нарсани бажара олиш қобилиятининг мавжудлигини билдиришдир: I mean obviously I can write academic articles.

Мазкур феълнинг яна бир функцияси сўроқ гапларда биринчи шахс билан ишлатилганда, бирор ишни қилиш учун рухсат сўраш, дарак гапларда иккинчи ва учинчи шахслар учун маълум ҳаракатни бажариш учун рухсат бериш маъносини ифодалашдир:

Can I borrow yours?

You can take these.

Шунингдек, can модал феъли мумкинлик маъносини билдириш учун ҳам қўлланиши мумкин:

These forces can be known and expressed only indirectly, through the condensations and displacements of dream imagery.

Таҳлил қилинаётган модал феълнинг қуйидаги маъноларни ифодалаш учун ишлатилиши унинг кенг тарқалмаган функциялари ҳисобланади:

I can take these letters to the post office if you like.

Юқоридаги гапда can феъли ўз хизматини таклиф қилиш учун қўлланяпти.

Can you help me with my paper?

Бу гапда модал феълнинг бу шакли илтимос маъносини ифодалаш учун ишлатилияпти.

We can talk about that next time гапида can феъли келаси замондаги таклиф маъносини билдирияпти.

Шунингдек, иккинчи ва учинчи шахслар учун ишлатилган сан модал феъли буйрукни ифодолаш вазифасини бажариш ҳолатлари ҳам учрайди: If your results aren't better next time, you can forget about going to Greece during the holidays.

Кейинги сафар натижаларинг яхшироқ бўлмаса, таътилда Грецияга бориш ҳақида унутишинг мумкин.

Қуйидаги гапда эса мазкур модал феъл бирор шахсга хос характерни беҳурматлик билан ифодолаш учун қўлланган: She can be very unkind at times.

Could модал феъли, одатда, сан феълининг ўтган замон шакли сифатида қуйида таҳлил қилинадиган маъноларни ифодолаш функциясини бажариш учун ишлатилади:

Nancy could ski like a pro by the age of 11.

Мазкур мисолда could феъли ўтган замонда мавжуд бўлган қобилият маъносини билдириш вазифасини бажаряпти.

Ўрганилаётган модал феълнинг яна бир функцияси дарак гапларда иккинчи ва учинчи шахслар учун маълум ҳаракатни бажариш учун рухсат бериш маъносини ўтган замонда ифодолашдир: You could take these.

Қуйидаги гапда could феъли ўтган замондаги мумкинлик маъносини билдириш учун ишлатилган:

I have not forgotten you—how could I.

John could have been the one who stole the money.

Мумкинликни ифодолашда could модал феъли ҳозирги ва келаси замонларни ҳам билдириши мумкин:

John could be the one who stole the money – ҳозирги замон.

John could go to jail for stealing the money – келаси замон.

Мазкур модал феъл илтимос маъносини ифодолаш учун хизмат қилиши мумкин:

Could I use your computer to email my boss?

Қуйидаги гапда ҳам бу модал феълга хос кенг тарқалган функциялардан бири илтимос маъносини ифодолашга хизмат қиляпти:

Could I borrow your stapler?

Қуйидаги мисолда эса could феъли таклифни билдириш учун қўлланганини кўришимиз мумкин:

You could see a movie or go out to dinner.

Шунингдек, модал феълнинг мазкур шакли ҳам ўз хизматини таклиф қилиш учун ишлатилиши мумкин. Бунда гап таркибида could феълнинг сан феъли ўрнига қўлланиши унинг мулойимлик даражасини яна ҳам оширади:

I could look after your parrot while you are abroad.

Қуйидаги гапда ҳам сан модал феъли ўрнида ишлатилган could маълум иш-ҳаракатни биргаликда бажаришни мулойимлик билан таклиф қилиш учун қўлланяпти:

If you're free now, we could have lunch together.

Ўзбек тилидаги модал маънони ифодоловчи кўмакчи феъллар аслида мустақил феъл бўлиб, кўмакчи феъл бўлиши мазкур феълларнинг иккиламчи функцияси ҳисобланади. Бу ҳақда А.Ҳожиев шундай ёзади: “Ўзбек тилида бутунлай кўмакчи феълга айланган (мустақил маъносини йўқотиб, фақат кўмакчи феъл сифатида қўлланадиган) бирорта ҳам феъл йўқ. Айрим мустақил феъллар кўмакчи феъл вазифасида ҳам қўлланади ва турли-туман маъноларни ифодолаш учун хизмат қилади. Улар қуйидагилар: бошла, ёт, тур, юр, ўтир, бўл, бит (битир), ол, бер, қол, қўй, чиқ, бор, кел, кет, юбор, ташла, сол, туш, ўл, ўт, ет, кўр, қара, боқ, ёз” [7]. У.Турсунов бошчилигидаги муаллифлар эса қуйидагиларни таъкидлайди: “Кўмакчи феълли аналитик шакллар икки феълнинг бирикувидан ҳосил бўлади. Бундай феълларнинг биринчиси мустақил феъл билан, иккинчиси эса кўмакчи феъл билан ифодоланади. Аналитик шаклнинг асосий қисми – мустақил феъл, одатда, **-(и)б**, **-а(й)** аффикслари билан ясалган равишдош бўлади. Аналитик шаклнинг кўмакчи қисми эса ўз мустақил маъносини йўқотиб, етакчи феъл билан бирикади, асосий қисм маъносига ҳар хил

кўшимча (тугаллик, бошланиш, тўсатданлик, тезлик, такрорийлик, давомлилик каби) маънолар ифодалайди” [3].

Инглиз тилидаги сан модал феълига эквивалент сифатида ўзбек тилида бил ва ол кўмакчи феъллари қўлланади. Бил феъли бирор ишни бажариш қобилиятига эгалик маъносида ишлатилади:

Бунинг устига Шерназарбой Шомурод бахши билан вакил ўртасидаги келишмовчиликлардан яхши фойдалана билди.

Мазкур феълнинг турли маънони ифодалаш вазифалари ҳақида А.Ҳожиев шундай ёзади: “Бадиий адабиётларда бил кўмакчи феълнинг ҳам “мочь”, “уметь” маъноларида қўлланиши кўп учрайди. Лекин бил кўмакчи феъли “мочь” маъносида қўлланганда жуда сунъийлик сезилади: Содик Сардор кўлидаги калитларларни икки-уч тортиб ҳам ола билмади (Ҳ.Шамс)...Бил кўмакчи феъли ақл билан бажариладиган ҳаракатларга нисбатан қўлланганда (“уметь” маъносида қўлланганда), сунъийлик сезилмайди, балки адабий тил нуқтаи назаридан ҳам нормал ҳолат сифатида бўлаверади. Чунки бунда бил кўмакчи феълнинг маъноси унинг мустақил феъл сифатида қўлланганда ифодалайдиган маъносига тўғри келади: Лекин масала тўғри йўлни, ҳақиқатни кўрсата билишда (Ойбек)” [7].

Ол кўмакчи феъли ҳаракат натижасининг субъект манфаати томон (ўзи учун, ўз фойдасига) йўналишини билдиради:

Шундай деб, буёғини таржимонимдан аниқлаштириб олдим: — «Минг»ни нима дейди булар? (Ў.Ҳошимов)

Ол кўмакчи феъли айрим феъллар билан қўлланганда, ҳолатнинг юзага келиши маъносини билдиради: Маъруф ғолибона илжайди-да, даст кўтариб олди. Тирсаги билан туртиб чирокни ўчирди (А.Қоржовов).

Шунингдек, ушбу кўмакчи феъл айрим феъллар билан бирикканда, етакчи феълдаги ҳаракатнинг бир марта бажарилиши маъносини билдиради: йўталиб олди, қимирлаб олди каби.

Ол кўмакчи феълида бирор ҳаракатни бажариш қобилиятига эгалик (“уметь”, “умение”) маъносини билдириш функцияси ҳам мавжуд: суза олмоқ, чала олмоқ каби.

Шунингдек, ҳаракатни бажариш имкониятига эгалик, қодирлик маъносини билдиради: Дарҳақиқат, устоз санъаткорнинг ана шундай олий инсоний фазилати бугун санъатга қадам қўйган кўплаб ёшлар учун ибрат мактаби бўла олади (Интернет тармоғидан).

Қисқаси, ўзбек тилидаги кўмакчи феъллар ҳам, инглиз тилидаги модал феъллар ҳам ўзининг синкретик табиатидан келиб чиқиб, турли хил маъно ифодалари учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Declerck R. The Grammar of the English Verb Phrase. Volume 1: The Grammar of the English Tense System. Berlin: Mouton de Gruyter, 2006.
2. Bussmann H. Routledge Dictionary of Language and Linguistics (translated by Trauth G. and Kazzazi K.). – London & New York, Routledge, 2006.
3. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
4. Palmer F.R. The English verb. - London: Longman, 1988 .
5. Perkins M. Modal expressions in English. – London: Frances Pinter (Publishers), 1983.
6. Portner P. Modality. - Oxford: Oxford University Press, 2009.
7. Ҳожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973.
8. Greenbaum S. The Oxford English Grammar. Oxford: Oxford University Press, 1996
9. Matthews P. The Oxford Concise Dictionary of Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
10. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Биринчи китоб. – Тошкент: Mumtoz so`z, 2010.

11. Жалолова Ш. Инглиз ва ўзбек тилларида феъл тураларининг чоғиштирма тадқиқи. Филол. фанлари бўй. фалс. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019.
12. Baerman M., Brown D., Corbett G.G. The Syntax-Morphology Interface. A Study of Syncretism. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Bayram Bilir,
Samarqand davlat universiteti
Tayanch doktoranti
bayrambilir33@hotmail.com

O‘RXUN BITIKLARIDA I HARFI VA YOPIQ È TOVUSHINING YEVROPALİK VA RUS TURKOLOGLARI TOMANIDAN TRANSKRIPSIYASI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

O‘rxun yozuvlari 18-asr boshlarida ruslar tomonidan qo‘lga olingan Iogan Stralenberg asari orqali ma‘lum bo‘lgan. Biroq, tadqiqot uchun birinchi ilmiy delegatsiyalar faqat 19-asrning oxirida yuborilishi mumkin edi. Birinchi delegatsiyalar esa 1889-1888 yillarda yuborilgan Finlyandiya tadqiqot delegatsiyalari edi. Daniyalik taniqli tilshunos olim V.Tomsen 1893-yil 15-dekabrda Daniya Fanlar akademiyasining yig‘ilishida O‘rxun va Yenisey bitiklarida ishlatilgan “runik” yozuvini o‘qishga muvaffaq bo‘lganligini e‘lon qildi. Bu muhim asarnin nashridan so‘ng turkolog olimlar tomonidan o‘rxon bitiklarida turli o‘qish va izohlash ishlari olib borildi.

Biz ushbu tadqiqotimizda o‘rxon bitiklaridagi I /i/ harfi va yopiq /è/ tovushining Yevropalik va rus turkolog olimlar tomonidan qanday transkripsiya qilinganligiga to‘xtalib o‘tishga harakat qilamiz.

Калит сўзлар: O‘rxun bitiklari, transkripsiya, yopiq è.

Bayram Bilir,
самаркандский государственный университет
Аспирант
bayrambilir33@hotmail.com

ТРАНСКРИПЦИЯ БУКВЫ I И БЛИЗКОГО ЗАЛОГА È В ОРХОНСКИХ НАДПИСЯХ ЕВРОПЕЙСКИХ И РУССКИХ ТЮРКОЛОГОВ

АННОТАЦИЯ

Орхонские надписи известны благодаря трудам Иоганна фон Страленбега, попавшего в плен к русским в начале 18 века. Однако первые научные миссии в исследовательских целях смогли быть отправлены только в конце 19 века. Первыми миссиями были финские исследовательские миссии, отправленные в 1889-1888 гг. 15 декабря 1893 г. на заседании Датской академии наук В. Томсен заявил, что прочитал «руническое» письмо, использованное в орхонских и енисейских надписях. После публикации этой важной работы тюркологи провели различные чтения и интерпретации орхонских надписей.

В данном исследовании мы постараемся сосредоточить внимание на том, как буква I /i/ и закрытый звук /è/ в орхонских надписях транскрибировались европейскими и русскими тюркологами.

Ключевые слова: орхонские надписи, транскрипция, закрытый звук è.

Bayram Bilir,
PhD student
Samarkand State University
bayrambilir33@hotmail.com

TRANSCRIPTION OF THE LETTER I AND THE CLOSE VOICE È IN THE ORKHON INSCRIPTIONS OF EUROPEAN AND RUSSIAN TURKOLOGISTS

ABSTRACT

The Orkhon inscriptions were known through the work of Johann von Strahlenberg, who was captured by the Russians in the early 18th century. However, the first scientific missions for research purposes could only be sent at the end of the 19th century. The first missions were Finnish research missions sent in 1889-1888. On December 15, 1893, at a meeting of the Danish Academy of Sciences, W. Thomsen announced that he had read the "runic" script used in the Orkhon and Yenisei inscriptions. Following the publication of this important work, Turkologists conducted various readings and interpretations of the Orkhon inscriptions.

In this article, we will try to focus on how the letter I / i- / and the closed / è / sound in the Orkhon inscriptions were transcribed by European and Russian turkologists.

Key words: Orkhon inscriptions, transcription, close voice è.

O'rxun bitiktoshlari

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga mansub bo'lgan O'rxun obidalari Ko'k turk davriga borib taqaladi hamda 490 dan ortiq qadimiy turkiy yozma yodgorliklar bilan bitta turkumini tashkil etadi. Fanda uzoq yillar davomida O'rxun yozuvlariga uchta yozma yodgorliklar – Kul Tegin, Bilga xoqon va To'nyuquq bitiktoshlari kiritib kelingan.

Daniyalik taniqli tilshunos olim Vilgelm V.Tomsen (Vilhelm Ludwig Peter V.Tomsen 1842-1927) 1893-yil 15-dekabrda Daniya Fanlar akademiyasining yig'ilishida O'rxun va Yenisey bitiklarida ishlatilgan "runik" yozuvini o'qishga muvaffaq bo'lganligini e'lon qildi. V.Tomsenning qadimiy turkiy "runik" yozuvini o'qish to'g'risidagi ma'ruzasi tez orada Daniya Fanlar va Xatlar Akademiyasining axborot byulletenida e'lon qilindi. V.Tomsenning eski turkiy "runik" yozuvi bo'yicha kashfiyoti ilm dunyosida, ayniqsa, turkologlar orasida bahs-munozaraga sabab bo'ldi. V.Radlov 1894-yil mart oyida "O'rxun yozuvlari" haqidagi ilmiy izlanish ishining birinchi bobi bo'lgan Erste Lieferungi nashr etdi. V.Tomsen 1896-yilda o'zining ikkita yirik yozuvini nashr etdi. Birinchi qismda eski turkcha "runik" yozuv va yozuv tizimi "runik" harflar misollari bilan batafsil ko'rib chiqilgan. Ushbu qismda eski turk yozuvining kelib chiqishi muammosi ham muhokama qilingan.

Ushbu tadqiqotlardan so'ng finlandiyalik, rus, turk, olmon, ingliz, fransuz, qozoq, o'zbek, qirg'iz, ozari, turkman, tatar, vengriyalik, xitoylik tilshunos-olimlar tomonidan grammatik tadqiqotlar amalga oshirilgan.

i /I/ harfining transkripsiyasi va yopiq e masalasi

I /i- / harfi qalin undoshlar (D d¹, G g¹, K q, L l¹, N n¹, R r¹, S s¹, T t¹, Y y¹) bilan birga kelganda qalin "i" tovushi tarzida, ingichka undoshlar (d d², g g², k k, l l², n n², r r², t t², y y²) bilan birga kelganda ingichka "i" tovushi tarzida o'qiladi. Neytral undoshlar (ʃ ch, m m, p p, ʂ sh, Z z) va juft undoshli tovushlar (ʃ ng, ʂ nt, ʂ nch, ʂ ny, M lt) bilan birga kelganda ingichka yoki qalin tarzida o'qilishini undan oldin yoki keyin kelgan undoshlar harflar belgilab beradi. So'z boshi va birinchi bo'g'indagi keng-tor "i" va "i" unlilari doimo harf sifatida yoziladi. Birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'inlarda uchraydigan /i, i/ ko'p hollarda yozilmaydi. Birinchi bo'g'indagi /i- / unlilarning yozilmagan holatlar kabi istisnalar ham bor.

Turkiy tillarda sakkiz unli yonida to'qqizinchi unli sifatida yopiq /e/ ning mavjudligi 1896-yilda

V.Tomsen ochiq e tovushi yonida ikkinchi e tovushining mavjudligini taklif qilganida muhokama mavzusi bo'lib, yuz yildan ortiq vaqtdan beri muhokama qilinmoqda. Tadqiqotchi ba'zi so'zlardagi unlilar "e" va "i" orasida uchinchi tovush borligini, bu tovush har doim ham goh e, goh i

bilan ko'rsatilgan yopiq e dan juda izchil foydalana olmasligini qabul qilish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.

E.Yilmaz tarixiy turkiy lahjalarda qo'llanilgan turli alifbolardagi tasvirlar va hozirgi turkiy tillardagi yopiq e tovushi yoki Asosiy turk tilida "e/ë" oppozitsiyasini bildiruvchi fonetik izlarni hisobga olgan holda asosiy /è/ tovushli ildizlar ro'yxatini tuzdi. Yilmaz ro'yxatida, unlu miqdorini hisobga olgan holda, /è/ va /ë:/ bilan ishlatilgan ildizlarni aniqladi.

i /I/ harfi va yopiq é tovushining Yevropalik tilshunos-olimlar tomonidan transkripsiyasi

V.Tomsen i harfini qalin tovush ekanligini ko'rsatish uchun "y" transkripsiyasidan foydalangan: smdi: uNGÇÍ (kt sh 6) yčy^{nu} ydm^{yš}, RTmYeRBŞÍ (kt sh 33) yšb^{ara} j^{am}t^{ar}, zmTi (kt sh 40) yt^mz, ЎҲҮ: ҺҲҮҲ (kt sh 1) oγly qy^{nm}'s, ДҮҮЛ: ҺҮҲЛ (kt sh 4) juγčy syγ^{tčy}. Ingichka unlini ifodalash uchun olim "i" transkripsiyasidan foydalangan: NGKImtsi (kt sh 1) ist^ämi q^aγ^an, ürgli (kt sh 2) ilg^ärü, ҺҲҲҲ: isini (kt sh 5) inisi äcisint^{äg}, ҲҺҲҲҲҲҲ (kt sh 11) jiti-jⁱgⁱrmi, ikrib (kt sh 27) birⁱki, ҺҲҲҲҲҲҲҲҲ (kt sh 34) qop-bilirsiz. Yozilmaydigan "y", "i" tovushlarini ifodalash uchun satr usti shaklida transkripsiya qilgan: ɔʔɔʔʔ ҺҲҲҲҲҲҲ (kt sh 2) b^{as}ɫʔʔʔ...tizlⁱgⁱg, ҺҲҲҲҲҲ (kt sh 11) t^{as}yqm^{'s}.

A.Vamberi i qalin tovush ekanligini ko'rsatish uchun "i" transkripsiyasidan foydalangan: smdi: uNGÇÍ (kt sh 6) iēgmu iēmiš, QDÍ (kt sh 10) iēduk, AdgllRGÍ (kt sh 29) ięar illikde,, ЎҲҮ: ҺҲҮҲ (kt sh 1) ogli^okt^{mm}š, ДҮҮЛ: ҺҮҲЛ (kt sh 4) jogčⁱsięitčⁱ. Ingichka unlini ifodalash uchun olim "i" transkripsiyasidan foydalangan: NGKImtsi (kt sh 1) Iztämä kagan, ürgli (kt sh 2) ilgärü, ҺҲҲҲҲҲ: isini (kt sh 5) inisi äcisintäg, ҲҺҲҲҲҲҲ (kt sh 11) jiti jigirmi, ikrib (kt sh 27) biräki, ҺҲҲҲҲҲҲҲҲ (kt sh 34) kop bilirsiz. Ayrim o'rinlarda i tovushini A bilan almashtirib qo'llanilgan: RTmYeRBŞÍ (kt sh 33) äšäbara yamtar, ba'zi misollarda qalin va ingichkaligini ajratish mumkin: ҺҲҲҲ (kt sh 1) tañri. Yozilmaydigan "i", "i" tovushlarini normal satr shaklida transkripsiya qilgan: ɔʔɔʔʔ...ҺҲҲҲҲҲ (kt sh 2) bašlⁱgⁱg...tizlⁱgⁱg, ҺҲҲҲҲҲ (kt sh 11) tašikmiš.

A. fon Gabain i qalin tovush ekanligini ko'rsatish uchun "i" transkripsiyasidan foydalangan: smdi: uNGÇÍ (kt sh 6) [ičy^{inu} iđmiš], QDÍ (kt sh 10) iđuq, AdgllRGÍ (kt sh 29) ię(ar) illikdä, ҺҲҮҲ: ЎҲҮ (kt sh 1) oylⁱ qilinmiš, ДҮҮЛ: ҺҮҲЛ (kt sh 4) yoęčⁱ sięitčⁱ, RTmYeRBŞÍ (kt sh 33) İšbara yamtar. Ingichka unlini ifodalash uchun olim "i" transkripsiyasidan foydalangan: NGKImtsi (kt sh 1) Ist(ä)mi qayan, ürgli (kt sh 2) ilgärü, ҺҲҲҲҲҲ: isini (kt sh 5) inisi ičisintäg, ҲҺҲҲҲҲҲ (kt sh 11) yiti yigirmi, ikrib (kt sh 27) bir(i)ki, ҺҲҲҲҲҲҲҲҲ (kt sh 34) qop bilirsiz, ҺҲҲҲ (kt sh 1) täņri. Yozilmaydigan "i", "i" tovushlarini normal satr shaklida transkripsiya qilgan: ɔʔɔʔʔ...ҺҲҲҲҲҲ (kt sh 2) bašlⁱęy...tizlⁱgⁱg, ҺҲҲҲҲҲ (kt sh 11) tašikmiš.

A.Berta i qalin tovush ekanligini ko'rsatish uchun "i" transkripsiyasidan foydalangan: smdi: uNGÇÍ (kt sh 6) ič^oy^{inw} iđmiš, QDÍ (kt sh 10) iđwq, AdgllRGÍ (kt sh 29) ięar ellięde, ЎҲҮҲ: ҺҲҮҲҲ (kt sh 1) oylⁱ qilinmiš, ДҮҮЛ: ҺҮҲЛ (kt sh 4) yoęčⁱ sięitčⁱ, RTmYeRBŞÍ (kt sh 33) iš^obara yamtar. Ingichka unlini ifodalash uchun olim "i" transkripsiyasidan foydalangan: ikrib (kt sh 27) biriki, ҺҲҲҲҲҲҲҲҲ (kt sh 34) qop bilirsiz, ürgli (kt sh 2) il'yerw, ҺҲҲҲҲҲ: isini (kt sh 5) inisi ečisin teý ҺҲҲҲ (kt sh 1) teñri. Yopig ingichka e uchun "ë" transkripsiyasidan foydalangan: ҲҺҲҲҲҲҲҲ (kt sh 11) yēti yēyirmi NGKImtsi (kt sh 1) ištemi qayan. Yozilmaydigan "i", "i" tovushlarini normal satr shaklida transkripsiya qilgan: ɔʔɔʔʔ...ҺҲҲҲҲҲ (kt sh 2) bašlⁱęy...tizlⁱgⁱg, ҺҲҲҲҲҲ (kt sh 11) tašiq^omiš.

i /I/ harfi va yopiq é tovushining Rusyalik tilshunos-olimlar tomonidan transkripsiyasi

V.V.Radlov i harfini qalin tovush ekanligini ko'rsatish uchun "ы" transkripsiyasidan foydalangan: smdi: uNGÇÍ (kt sh 6) ычбыну ыдмыш, RTmYeRBŞÍ (kt sh 33) ышбара jamtar, zmTi (kt sh 40) ыттымыз, ЎҲҮҲ: ҺҲҮҲҲ (kt sh 1) oβly kылынмыш, ДҮҮЛ: ҺҮҲЛ (kt sh 4) joβчы сыбытчы. Ingichka unlini ifodalash uchun esa "i" transkripsiyasini bergan: ürgli (kt sh 2) ilpāpý, ҺҲҲҲҲҲ: isini (kt sh 5) inici äčicintär, ҺҲҲҲҲҲҲҲҲ (kt sh 34) kып билipciз. i ning "e" ingichka tovushi bilan oraliqdagi tovushni (yopiq "e") ifodalash uchun "ä" transkripsiyasidan foydalangan: nili (kt sh 1) älin NGKImtsi (kt sh 1) äšitmä қаған, ҲҺҲҲҲҲҲҲ (kt sh 11) jätⁱ jiripmi. Yozilmaydigan "ы", "i"

tovushlarini normal satr shaklida transkripsiya qilgan: ᠳᠶ᠋ᠢᠷᠢᠭᠡ ᠬᠢᠴᠢᠭᠡᠰᠡ (kt sh 2) башлыҫны әтiзлiғнi, ᠬᠢᠴᠢᠭᠡᠰᠡ (kt sh 11) ташыкмыш.

P.M.Melioranskiy i qalin tovush ekanligini ko'rsatish uchun “ы” transkripsiyasidan foydalangan: smdi: uNGČĪ (kt sh 6) ы[чᠢ]ыну ыдмышс, RTmYeRBŞĪ (kt sh 33) ышбара жамтар, zmTi (kt sh 40) ытымыз, ᠶᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢ (kt sh 1) оҗлы кылынмышс, ᠳᠶ᠋ᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢ (kt sh 4) жуҫчы сыҫытчы. Ingichka unlini ifodalash uchun olim “i” transkripsiyasidan foydalangan: NGKImtsi (kt sh 1) ictāmi қаған, ürgli (kt sh 2) ilgärÿ, ᠶᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢ: isini (kt sh 5) inici äčicin täg,., ᠶᠶ᠋ᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢ (kt sh 34) куп билipсiз. Yorig ingichka e uchun “ä” transkripsiyasidan foydalangan: nili (kt sh 1) älin ᠶᠶ᠋ᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢ (kt sh 11) jäti jägirmi. Yozilmaydigan “ы”, “i” tovushlarini normal satr shaklida transkripsiya qilgan: ᠳᠶ᠋ᠢᠷᠢᠭᠡ...ᠬᠢᠴᠢᠭᠡᠰᠡ (kt sh 2) башлыҫны...tizligir, ᠬᠢᠴᠢᠭᠡᠰᠡ (kt sh 11) ташыкмышс.

S.E.Malov i qalin tovush ekanligini ko'rsatish uchun “ы” transkripsiyasidan foydalangan: smdi: uNGČĪ (kt sh 6) ычᠢыну ыдмыс², RTmYeRBŞĪ (kt sh 33) ышбара жамтар, zmTi (kt sh 40) ытымыз, ᠶᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢ (kt sh 1) оҗлы кылынмыс², ᠳᠶ᠋ᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢ (kt sh 4) жуҫчы с²ыҫытчы. Ingichka unlini ifodalash uchun olim “i” transkripsiyasidan foydalangan: NGKImtsi (kt sh 1) ictāmi қаған ürgli (kt sh 2) ilgärÿ, ᠶᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢ: isini (kt sh 5) inici äčicin täg,., ᠶᠶ᠋ᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢ (kt sh 34) куп билipсiз nili (kt sh 1) ilin ᠶᠶ᠋ᠶ᠋ᠯᠢᠨᠨᠢᠨᠢᠨᠢᠨᠢ (kt sh 11) jiti jägirmi. Yozilmaydigan “ы”, “i” tovushlarini normal satr shaklida transkripsiya qilgan: ᠳᠶ᠋ᠢᠷᠢᠭᠡ...ᠬᠢᠴᠢᠭᠡᠰᠡ (kt sh 2) башлыҫыҫ...tizligir, ᠬᠢᠴᠢᠭᠡᠰᠡ (kt sh 11) ташыкмыс².

Xulosa

“i” harfini qalin tovushli harf sifatida ko'rsatish uchun /y/, /i/ va /ы/ belgilari, ingichka tovushli harf sifatida ko'rsatish uchun /i/ belgilari ko'rsatilgan. IPA alifbosida bo'lsa yopiq orqa tekis unli uchun “u” tavsiya etilgan. Biz “o” va “u” harfining holatini va /’/ shaklining ingichka tovushlarni ifodalash uchun ishlatilishini ko'rsatish orqali /i/ shaklida transkripsiya etilishini yoqlaymiz. IPAda yopiq old tekis unli tovush uchun “i” tavsiya etilgan. Biz ham turkologlarning va IPAning tavsiyasiga tayangan holda “i” harfi bilan transkripsiya qilishlari tarafdorimiz. Shu bilan birga ushbu harf transkripsiyasida yopiq “e” tovushini ifodalashi uchun Bertanin “è” transkripsiya belgisini yoqlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berta A. Sözlərimi İyi Dinleyin: Türk ve Uygur Runik Yazıtlarının Karşılaştırmalı Yayını. / Çev. E. Yılmaz. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2010. B. 127-189.
2. Bulletin de l'Académie Royale des Sciences et des Lettres de Danemark. – P.185-299.
3. Ceylan Yılmaz E. Ana Türkçede Kapalı e Ünlüsü.– Türk Dilleri Araştırmaları Ankara, 1991. s. 151-165.
4. Ercilasun A.B. Türk Kağanlığı ve Türk Bengü Taşları. – İstanbul, 2016. – S.363.
5. Gabain A. Altürkische Grammatik. – Hamburg, 1950. B. 247-258.
6. Малов С.Э. Памятники древнетуркской письменности. – Москва-Ленинград: «Академик Наук», 1951. B. 27-70.
7. Мелиоранский П.М. Памятник в честь Кул тегина. – Санкт-Петербург: «Типография императорской Академии Наук», 1899. B. 60-79.
8. Radloff W. Altürkischen Inschriften Der Mongolei. – Sankt-Peterburg, 1895. B. 5-83.
9. Tekin T. Orhon Yazıtları. – Ankara, TDK, 2010. – s. 10.
10. Thomsen V. Déchiffrement des Inscriptions de l'Orkhon et de l'Énisei. // Bull. Acad. Roy. – Danemark, 1893.
11. Thomsen V. Inscriptions de l'Orkhon Dechiffrees. – Helsingfors, 1896. B. 97-133.
12. Vambery H. Noten Zu Den Alttürkischen Inschriften Der Mongolei and Sibiriens. – Helsingfors, 1898. B. 26-85.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz


Jumanova Shohista Rofiyevna

Samarqand davlat universiteti

1-bosqich tayanch-doktoranti

atsihosh1995@gmail.com

TARJIMONNING YUTUQ VA KAMCHILIKLARI (CHO‘LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ASARI MISOLIDA)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Milliy adabiyotimizda Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Cho‘lpon asarlari mushkul davrlarda qiyinchiliklarga duch kelgan xalqimizning qalbiga iliqlik olib kelishga yo‘lchi bo‘lib xizmat qiladi. Uning “Kecha va kunduz” romani tarjimasining qiyosiy tahlili ko‘p o‘rganilmaganligi sababli, ushbu maqolada biz bu ishga qo‘l urdik. Mazkur maqola Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu jarayonda yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar, yutuqlar, stilistik qurilmalarning tarjimada qay darajada aks etishi o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, asliyat, asl nusxa, ma’naviyat, stilistik qurilma, ibora, urf-odat, metafora, o‘xshatish, manba tili, tarjima, tarjimon.

Жуманова Шохиста Рофиевна

Докторант 1-го курса

Самаркандский государственный университет

atsihosh1995@gmail.com

ДОСТИЖЕНИЯ И НЕДОСТАТКИ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЧОЛПОНА «НОЧЬ И ДЕНЬ»)

АННОТАЦИЯ

Особое значение в нашей национальной литературе имеет роль Абдулхамид Сулейман угли Чулпана. Произведения Чулпана послужили проводником к согреванию сердец нашего народа, столкнувшегося с трудностями в те сложные времена. Поскольку сравнительный анализ перевода его романа «Ночь и день» мало изучен, в данной статье мы взяли за это. Данная статья посвящена сравнительному анализу романа Чулпана «Ночь и день» и тому, насколько отражены некоторые недостатки, достижения и стилистические приёмы, допущенные в процессе перевода.

Ключевые слова: Литература, оригинальность, оригинальная копия, духовность, стилистический прием, фраза, традиция, метафора.

Jumanova Shohista Rofiyevnathe 1st year PhD student Samarkand State university

atsihosh1995@gmail.com

ACHIEVEMENTS AND SHORTCOMINGS OF THE TRANSLATOR (ON THE EXAMPLE OF CHOLPON'S "NIGHT AND DAY")

ABSTRACT

Particular importance of our national Literature is the role of Abdulkhamid Suleiman ugli Chulpan. Chulpan's works served as a guide to warming the hearts of our people, who faced difficulties in those difficult times. Since the comparative analysis of the translation of his novel "Night and Day" has been studied a little, in this article we took up this. This article is devoted to a comparative analysis of Chulpan's novel "Night and Day" and to the extent to which some shortcomings, achievements and stylistic devices made during the translation process are reflected.

Key words: Literature, originality, original copy, spirituality, stylistic devices, phrase, tradition, metaphor.

Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi, Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz", deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich. Darhaqiqat, adabiyot borki, millatning ma'naviy olami bor, adabiyot borki, ezgu amal bor, ta'lim-tarbiya bordir. Adabiyot orqali xalqning turmush-tarzi, urf-odatlarini, an'alariga chuqur kirib borish mumkin. Ma'lum bir xalqning dunyo sahnalarida muhim o'rinni egallashida adabiyot muhim o'rinni egallaydi. Ushbu yutuqlarga erishish yaxshi va puxta qilingan tarjima orqali amalga oshadi. Tarjima insoniyat sivilizatsiyasida muhim rol o'ynaydi. Tarjima hayot, turmush-tarzi fan-yutuqlarini bir tildan ikkinchi tilga yetkazib beruvchi vositadir. "Tarjima-bu mavjud lingvistik nutqning ma'nosini bir tildan boshqasiga o'tkazuvchi aqliy faoliyat bo'lib sanaladi. Bu lisoniy mavjudotlarni bir tildan ularning ekvivalentlariga boshqa tilga o'tkazish jarayoni. Tarjima-bu matnning mazmunini manba tilidan maqsadli tilga o'tkazuvchi jarayondir".

Tarjima qilinadigan til manba tili, asliyat (SL), tarjima qilinadigan til esa maqsadli til (TL) deb ataladi.

Tarjimon yuqori lingvistik sezgirlikdan tashqari, manba tilini ham, maqsadli tildan ham yaxshi xabardor bo'lishi kerak, chunki u tarjima qilingan manbada yozuvchining niyati, asl o'y-fikrlarini iloji boricha aniq va ravshanlik bilan yetkazilishi kerak. Milliy adabiyotimizda Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning roli alohida hamiyat kasb etadi. Cho'lpon asarlari g'afolatda qolgan xalqning qalblariga iliqlik olib kelishga yo'lchi bo'lib xizmat qiladi. Uning "Kecha va kunduz" romani tarjimasini ko'p o'rganilmaganligi sababli, ushbu maqolada asar tarjimasining qiyosiy tahliliga yuzlanmoqchimiz. Ma'lumot o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, "Kecha va kunduz" romanida turmushda kechadigan oila munosabatlari, an'alar, qadriyatlar o'xshatish, qiyoslash, metaforalar, bir so'z bilan aytganda, stilistik qurilmalarning so'z san'atini jozibador qo'llash orqali aks etganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Misol uchun, asarning bir parchasida quyidagicha ifodalangan:

Asliyat matni: *Eshikdan kirar-kirmas ovozing boricha:*

-Bu nima qiyomat!!!-deb shovqin solishi ikkala yosh qizni chaqmoq tekkan

daraxtday, turgan joylarida qotirib qo'ydi. "Like lightning striking a tree"- "Chaqmoq tekkan daraxtday" – bunda o'xshatish san'ati berilmoqda. Agar ushbu "Like lightning striking a tree"ni so'zma-so'z tarjima qilganimizda- daraxtni qimirlatuvchi yorug'likday kabi ifodalanadi. Aytishimiz mumkinki, asliyatni tamomila tarjima qilish juda mushkul masalalardan biri bo'lib sanaladi.

Tarjima matnini o'qir ekanmiz, tarjima jarayonida asliyatdan ikkinchi tilga o'girilganda bir qancha iboralarning farqli tarzda tarjima qilinganini ko'rishimiz mumkin. Fikrlarimizni dalillar bilan ifodalaymiz: "Qovog'ingizni ochsangiz-chi!- "Unfrown your brow" tarzida beriladi. Ushbu iborani so'zma-so'z tarjima qilsak: "Qoshingni burishtirma, chimirma" kabi bo'ladi. Kristofor Fort bu yerda antonimik tarjimadan foydalanadi. Shu o'rinda I. G'afurovning fikrini yodga olamiz:

"So'zlovchi nutqi, muallifning asari, turli hujjatlar va ma'lumotlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish yoki o'tkazish, boshqa tilga ularni tushunarli qilish

tarjima deb ataladi”. “Asl nusxa va tarjima tillari lisoniy imkoniyatlari , odatda, o‘zaro uyg‘unlik holatida bo‘lmasligi, ya’ni ikki til so‘z va iboralarining mazmuni bilan estetik qiymati qator matniy holatlarda bir-birining o‘rnini qoplay olmasligi talay tarjima qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bunday hollarda ifodaning badiiy-estetik qiymatini qayta yaratish tarjimaning asliyat matniga moddiy jihatdan emas, balki vazifaviy monand kelishini taqozo etadi”

Navbatdagi iboraga yuzlanamiz, unda shunday deyiladi:

Asliyat matni: Qurvonbibi so‘zga qancha epchil bo‘lsa, Razzoq so‘fi shu qadar kamgap , indamas, *damini ichiga solgan*, ziqna odam edi.

Tarjima matni : As sharp as her tongue was, Razzoq sufi was to the same extent a reticent, tight-lipped, boring man who kept to himself.

Keltirilgan mazkur parchada Qurvonbibi so‘zi tushib qolgan, ilgari o‘rin olgan kontekstning davomi sifatida hamda *her* olmoshi bilan berilgan, biroq gapni alohida matndan ajratilgan holda tarjima qilganimizda aynan Qurvonbibi haqida so‘z borayotganligi haqida emas, balki qandaydir ayolning “*tili o‘tkirligi*” haqida so‘z borayotganini anglashimiz mumkin. “Damini ichiga solgan” iborasi-ingliz tilida “boring man”, ya’ni “zerikarli odam” deya berilgan. (bu yerda who kept to himself bilan berilgan).

Asarda qadriyatlarimiz, urf-odat, an‘analar, milliy ruh, oila munosabatlari, o‘zbek madaniyatiga alohida urg‘u beriladi. Undagi bir parchada:

Asliyat matni: O‘zbekda axir har bir erkak o‘z xotinini – o‘z halol juftini qizi yoki o‘g‘lining nomi bilan atab chaqiradi. O‘z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo‘lsa, mo‘min-musulmon: - sharm-u hayo yuzasidan bo‘lsamikan? – xotinini “Xadicha” deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar “labbay” deydi: shunday-da, oilaning haqiqiy

egasi bo‘lgan ota: “Kattangni aytaman, kattangni!” deydi. Hatto shunda ham “Maryamni ” demaydi.

Tarjima matni: Every Uzbek man calls his wife – his lawful partner in life – by his daughter or his son’s name. It just won’t do to call his wife by name. If his wife’s name was Maryam and his daughters’ Xadicha, a faithful Muslim wouldn’t bring shame on himself. He would call his wife Xadicha. Most mother-daughter pairs would both answer, “yes, sir!” and the true head of the family would specify: “I mean the elder, the elder!”. But he would never say Maryam.

Мавзунинг долзарблиги. Инсон мадҳи, унинг фазилятлари тараннуми, одамлар ҳаётидан нақл, комил инсон ғояси талқини бадиий адабиётнинг асосий мақсади ва азалий мавзуси бўлиб келган. Минг йилдан ошган форс-тожик назми фазлу одоб, эзгу инсоний ахлоқни талқин қилиш баробарида башарият авлодини юксак маънавий камолот, яъни инсон бўлишга даъват этган. Умуман, қайси санъат асари бўлмасин, унинг негизида инсонни тарбиялаш, унга раҳнамолик қилиш, онгини сергак тутиш ҳамда эстетик завқини ошириш каби муҳим мақсад туриши керак.

Одатда эстетик талабларга мувофиқ тарзда яратилган чиройли, руҳга оромбахш бўлган турли ажойиб ва ҳайратбахш нарсалар гўзалликка мансубдир. Гўзаллик шайдоси бўлган шоирлар уни турли нарсаларда кўра олишган: табиат манзараси, маъшуқа жамоли, инсон кўли маҳсули бўлган санъат асари ва булар билан бир қаторда давлат ва жамият арбобларига хос шон-шавкатда, уларнинг турли жанрларда кўрсатган шижоати, одобу тақвосида ҳам. Шу тарзда турли давру замон шоирлари ижодида мадҳ, тараннум, бағишлов шеърлари вужудга келган. Бу каби шеърлар ҳатто марсия шаклида ҳам битилган бўлиб, устоз Рўдакийнинг Муродий ва Шаҳид Балхий каби замондош шоирлар вафотида ёзган шеъри бунинг ёркин намунаси:

Корвони Шаҳид рафт аз пеш,

В-они мо рафта гиру меандеш.

Аз шумори ду чашм як тан кам,

В-аз шумори хирад ҳазорон беш... [6,48]

(Мазмуни: Шаҳид корвони олдимиздан ўтиб кетди. Бизнинг корвонимиз ўтди деб ўйлайвер: икки кўз ҳисобидан бир киши кам бўлди, илму дониш ҳисобидан мингдан ортик киши кетди...)

Кўрганимидек, мазкур шеърда ғам билан ҳамдардлик баробарида васф бор: устоз Рўдакий ҳаким Шаҳидни ўзидан устун қўйиб, муболаға даражасида унинг илмини минглаб

донишманд кишилардан фазилатидан устун билган. Демак, марсияда ҳам инсон хислати тараннуми бор.

Тадқиқот мақсади. Ушбу мавзуни ўрганишдан асосий мақсад мадҳ шеърининг турли шаклда намоён бўлиши ва ҳозирги тожик адабиётида бу мавзунинг қай даражада талқин этилишини ўрганиш, шу заминда шоирларнинг ютуқ ва камчиликларни аниқлашдан иборат.

Тадқиқот методи. Мавзуни ўрганиш ва унинг моҳиятини очиб бериш жараёнида асосан киёсий-тарихий, ҳамда таҳлилий методлар қўлланилди.

Тадқиқот натижалари ва муҳокама. Айтиб ўтганимиздек, форс-тожик шеърлятида олқиш ва мадеҳавий шеър минг йилдан ортиқ тажрибаларга эга бўлиб, XIX аср охиригача мадеҳавий қасида шаклида ифода этилар эди. Подшоҳлар, жамият арбоблари, давлатманд кимсалар ва уларнинг дабдабаю салобатга эга қасру қошоналари, жанг майдонидаги куч синашу қаҳрамонликлари таъриф тавсифидан иборат мадеҳалар ўрта аср шоирлари шеърлятида муҳим мавқега эга бўлиб, минглаб шеър дафтарларини безар эди. Шу тариқа ўтмиш шеърлятида шахспарастлик ва тамаъгирликка мойил бўлган шаклдаги носоғлом гуманизм ривожланиб, ўз ўрнини эгаллади ва албатта бирор эҳтиёж билан саройдаги адабий муҳитга интилган ҳар бир шоир ноилож мадеҳа куйлашга киришар эди. Аммо Носир Хусрав ёки Анварий Абевардийга ўхшаган баъзи шоирлар кейинчалик маддоҳликни шоир шаънига раво кўрмай, ўзларининг тамаллуқ ва илтифот истаб ёзган шеърларидан пушаймон бўлиб, қаноат хилватидан паноҳ излар эдилар. Чунончи, Анварий ёзади:

Беш бар ёди жож шеър мадеҳ,

Эй гаронсоя, он гаронмоя [5,324].

(Мазмуни: Бошқа энди беҳуда нарсалар учун қимматбаҳо бўлган шеърингни ёзма, эй қадри баланд шоир!)

Асосан таниқли сиёсат ва жамият арбоблари таърифида ёзилган мадеҳавий шеърлар кўпроқ шўролар ҳукумати даври назмига хос адабий ҳодиса бўлиб, адабиётшинос ва мунаққид Маъруф Ражабийнинг бу давр шеъритяга оид ишлатилган ўзига хос истилоҳ билан таърифлаганда “сарой мадеҳавий шеърининг давомидир” [9,7]. Бу каби шеърлар бугунги кунда ҳам одатий тус олиб, давлат маъмурий ходимлари, жамиятдаги юқори мавқега эга бўлган шахсиятлар шаънида айтилган бўлиб, гўёки “иложсиз ижтимоий эҳтиёж” сифатида юзага келган бўлиб, адабий расмиятга айланиб бормоқда. Бу каби шеърларнинг аксарияти бугунги матбуотда нашр этилаётган бўлиб, мангу бўлолмайдиган ўткинчи шеърлар сирасига киради. Бу қабил шеърларни касбий шоирлар ижодиётида ҳам баъзан кузатишимиз мумкин, чунончи Садриддини Хушёрининг “Бўйи модар” (“Она ҳиди”) китобида “Ислом Абдуғаниевич Каримовга” унвони билан келтирилган бир шеър бор:

Ту эй марде, ки чонҳо пеши роҳат буд,

Кучо рафтӣ?

Тамоми Ўзбекистон дар паноҳат буд,

Кучо рафтӣ?

Кабўтарҳои сулҳи ин Ватан ҳайрон,

Кучо рафтӣ?

Ҳама пиру чавон гирён,

Кучо рафтӣ?... [11,176]

(Мазмуни: Эй сен, ҳама жонлар йўлингда (фидо) бўлган мард инсон, қаерга кетдинг? Бутун Ўзбекистонни паноҳингга олган эдинг, қаерга кетдинг? Бу Ватаннинг тинчлик кабуларлари ҳайрон, қаерга кетдинг? Ҳама ёшу қари гирён – қаерга кетдинг?)

Буюк тарихий сиймоларни тараннум этиш миллий ва тарихий ўзликни англаш ғоялари билан йўғрилган шеърлятнинг бир томони бўлиб, айна пайтда моҳиятига кўра қадрлов ва мадҳ шеъри ҳамдир. XX аср 60-чи йиллардан кейин тожик адабиётида вужудга келган бу каби шеърларни тожик адабиётшунослигида “миллий ўзликни англаш шеъри” (“шеъри худоғоҳии миллӣ”) деб атадилар. Чунончи, турли тарихий даврларда яшаб ижод этган, икки тарихий марҳила бошида форс-тожик адабиётига асос солган ҳамда уни ривожлантирган икки буюк тарихий-маданий сиймолар – Рўдакий ва Айний устозлар васфида ёзилган шеърлар шу

жумладандир. Уларни ёд этиш ва кадрлаш мақсадида ёзилганлар мисолида фақатгина ҳозирги адабиёт вакиллари бўлган икки буюк шоир Бозор Собир ва Лойиқ Шералийни бу устозларнинг буюклиги, шоирлик даҳоси, донишмандлиги, инсоний фазилатлари ҳақидаги ёзган шеърларини мисол келтириш kifоядир. Уларнинг мадҳида реал воқеяликнинг тасвирдан ташқари, юқори бадий маҳорат, гўзал поэтик тасвирлар ишлатилгани, шеърларининг таъсирбахшлигини таъминлаган. Бу ҳодисани мушоҳида этган Эрон адабиёт муҳаққиқи Алиасгар Шеърдўст, Лойиқ ва Бозор шеърларида “тоза баён, янги фазога интилиш ва ҳаракат” борлиги ҳис этилишини таъкидлаган [2,67].

Устоз Рўдакий ва Айний кадрлови Лойиқ Шералий шеърларида унинг миллий армонларига асосланади. Мўмин Қаноатга аталган “Шеъри нав” (“Янги шеър”) бағишлов шеърида шеър қисмати Рўдакий ва Айний қисмати билан чамбарчас боғланган ва матн мазмунига кўра, янги шеър янги замон инсони каби оёққа туради – у инқилоб фарзандидир. Шеърнинг ўтган аср бошидаги тадрижий такомилли ўша давр ижтимоий-сиёсий вазъияти ўзгариши, жумладан, янги шеър учун имконият эшиклари очилиши зиндонлар кулфи очилиши билан ҳамоҳанг тарзда кечади ва Айнийнинг “Хуррият марши” (шеъри) аскарларнинг юриш усулига ўхшаб, тарихий эҳтиёжга жавоб сифатида вужудга келган. Энди бу шеърни “тўлдириб”, юксақларга кўтариш вақти келди, устоз Рўдакий миллий армонларни кўйлаганидек шеър яратиш керак:

Аз Бухоро то дили ман як ваҷаб роҳ асту бас,

Роҳи назми Рўдакию роҳи аҷдоди ман аст.

Ман ба ин раҳ меравам пуршўртар,

Меравам бар дури дури дуртар.

Шеъри мо ҳар кадр пурбардору шевотар шавад,

Захмҳои пушти Айни он қадар ёбад шифо,

Чашмҳои Рўдаки он кадр бинотар шавад. [7,62]

(Мазмуни: Бухородан менинг юрагимгача бир қарич йўл бор, холос. Бу йўл Рўдакий назмию аждодим йўлидир. Бу йўлдан шиддат билан узоқларга бораман. Бизнинг шеъримиз ҳар қадар мазмунли ва гўзал бўлса, шу қадар Айнийнинг тан жароҳатлари шифо топгай, шу қадар Рўдакий кўзлари бино бўлгай.)

Бозор Собирнинг “Мучассамаи Айни” (“Айний ҳайкали”, 1981) шеъри ҳам устозга бағишланган энг яхши манзум ёдгорликдир. Мазкур шеърда шоир тарихий мавзун таъсирбахш ва шахоматли бир фазода яратган. Бу шеър қофия структурасига кўра турлича бўлиб (**абвб**, **аабб**, **ааба...**), 12 бандли тўртликлардан иборатдир. Шоир эркин шеър имониятларидан баҳраманд бўлгани ҳолда шакли мазмун хизматида бўйсиндирган:

Халқ ҳамчун пайкареву пайкаре чун халқ хест,

Кўҳи хоропайкаре дар ҳайкале бедор шуд.

Рўи ў бар сўи мову рўи мо бар сўи ў,

Халқ дар тимсоли Айни халқи минбардор шуд [4,36].

(Мазмуни: Халқ бир ҳайкалда, ҳайкал эса халқ тимсолида гавдаланди. Харсангтош вужудли тоғ бир ҳайкалда кўзини очди. Унинг юзи бизлар томон, бизнинг юзимиз у томонга. Халқ Айний тимсолида минбарга эга бўлди.)

Бозор Собир ўз сўзини шукўҳу шахомат билан бошлаб, биринчи банддаёқ сўзларининг жозибаторлигига аҳамият берган. Бу билан у мумтоз шеърятга хос бўлган матлани жозибали яратиш анъанасига издошлик қилган. Биринчи ва учинчи мисраларда қўлланган тазод ва муқобала санъати моҳирона ишлатилган. Шоир Айнийнинг улуғлигини катта шоирона маҳорат – тавсифу ташбиҳ ва дилнишин муболағалар билан тасвирлаган:

Ҳайкали ўро ба ҳукми ҳайкали фарҳанг бин,

Сангро дар нанг бину нангро дар санг бин.

Ҳар ки ўро дид агар Фирдавсии ноида дид,

Бори Рустамро ҳанўз аз Рахш ноафтаида дид.

(Мазмуни: Унинг ҳайкалини маданият ҳайкали ҳукмида бил. Тошда ному нангни кўр, ному нангни эса тошда. Уни кўрганлар ўзлари кўрмаган Фирдавсийни кўрганлар. Гўёки Рустам юки хануз унинг оти Рахшдан тушмагандай.)

Лекин нима учун устоз Бозор Собир бошқа мажмуада (“Аз “Гули хор” то “Симхор”) шеърини ихтисор этишга қарор қилди? – Бу ҳолат албатта Бозор Собирнинг ҳаётга танқидий назарга эга эканлигидандир. Вақт ўтиши, ижодий маҳорат такомилли, ғоявий тафаккурнинг ўзгариши табиий воқеяликдир ва айнан вақт ўтиши шоир андишаларини ўзгартирган. Йигирма йил муддат ўтишидан сўнг Бозор Собир ижтимоий-маданий қадриятлар ўзгарганлигини кўра билган. У баъзида шеърнинг ноилож тарзда жамиятдаги ғоявий жараёнлардан таъсирланиши мумкинлиги идрок этган, шунинг учун муайян бир тарихий даврда шоирнинг бошқа баъзи бир шеърларида айнан шу ҳолат (шеърнинг қисқартилиши, сарлавҳаси ўзгартирилиши) такрорланишини мушоҳада қилинади. Ўз ижодига танқид назари билан қараш, шеърларни қайта таҳрирлаш шоирнинг ҳар бир оддий инсон сингари замон изнида эканлиги, унинг вақт мурури билан ўз хатоларини тузатишга имкони борлигини бизга англатади.

Устоз Лойиқ “Айний” шеърида (1988 йил) Садриддин Айнийга хитоб этиб, унинг фидокорона меҳнатларини бирма-бир айтиб ўтади:

Зи лавҳи гўрхо, аз мрамари сарди мазористон,
 Зи хоки мурдағони зиндатар аз зиндадаргўрон,
 Зи нақши ҳар катиба, нақши нохун
 дар тани зиндон,
 Зи соҳилҳои бедарё, зи дарёҳои бечарён
 Ту моро кофтӣ, устод,
 Ту моро ёфтӣ, устод!
 Зи аъмоқи фаромўшхонаҳои тираи таърих,
 Зи хоке, ки шуда омомчоҳи тири бадхоҳон,
 Чу абёти парешоне, ки монд аз Рўдакӣ мерос,
 Ту моро чамъ овардӣ зи ҳар маҷмўаву девон,
 Ту моро зинда гардондӣ,
 Ба мо моро шиносондӣ. [7,92]

(Мазмуни: Устод, сен бизларни мазордаги совуқ мрамар лавҳидан; мурдадил тириклардан тирикрок бўлган ўтганларнинг тупроғидан; зиндонларда қолган тирноқлар нақшидан; дарёсиз соҳиллар, жараёнсиз дарёлардан излаб, топдинг! Тарихнинг қора фаромушхонаси қаъридан; ёвузлар тиридан топталган тупроқдан, Рўдакӣдан мерос қолган байтлар каби, сен бизларни турли мажмуа ва девонлардан жамладингда, ҳаёт бахшида этдинг ва бизни бизга танитдинг.)

Мадеҳа, васф, улуғлов шеъри ҳозирги тожик шоирлари шеърлятида ватан тараннуми шеъри баробарида ривожланиб, мумтоз адабиётдаги сарой маддоҳлик шеърининг бир навъидир. Жоҳталаблик ва мансабу мақом мақсадида ёзилган сарой маддоҳлик шеъридан, шунингдек замон сиёсатини тарғиб қилишда хизмат қилган ва шахспарастликни авж олишига имкон берган шўролар даври мадеҳавий шеъридан фарқли ўларок, бугунги замон васф ва мадеҳа шеърларида миллийлик руҳияти уйғундир.

Мадеҳавий мавзуни танланиши шоирнинг қайси ғоявий ва ижодий тамойилга мансуб эканлигига ҳам боғлиқдир. Таассуфки, гоҳо бу қабилдаги шеърлар тамаллуқ ва шахспарастона ғаразлар билан ҳам ёзилади. Аммо буюқлар, ёру дўстлар мадҳи гоҳида табиий тарзда, самимона ва содиқона шаклда ҳам ифода этилиши мумкин. Агар бу шеърлар сушт, бадий бўёқларсиз баён этилган бўлса, уларнинг таъсири ҳамда қиймати ҳам йўқолади.

Бағишлов шеъри ҳам мадеҳа шеъри билан тенг вазнда унинг бир кўриниши сифатида ҳозирги тожик назмида ривожланиб бормоқда. Бундай шеърларда одатда мухотаб исми тилга олинадди, чунончи “Дўстим ...га”, “Устоз ...га”, “Фарзандимга”, “N ...га” ё худ “Бағишлов” ва ҳоказо. Бунга ўхшаш шеърлар ҳозирги хоҳ тожик ва хоҳ ўзбек адабиётида кўп кўзга ташланади. Масалан, самарқандлик шоирлардан Худоназар Оқсой ва хусусан Салим

Кенжанинг шеърий мажмуаларида дўстлар, устозлар, қариндошлар, маърифат аҳлига бағишланган шеърлар намунаси фаровондир. Бу шеърларда баён содда услубда тус олган. Ҳар ҳолда иқтидорли шоирлар бу масалада жиддий ёндошганлар ва ўзларининг ижодий маҳоратини кўрсата олишган. Мисол тариқасида Жаъфар Муҳаммад Тирмизий қаламига мансуб “То баландии аноҳитой” (“Аноҳитойи баландликкача”) деб номланган бир шеърига эътибор қаратамиз. Унда янгича бадиий тасвирларни учратамиз:

Ману ту зодаи як силсилакўх,
Ману ту зодаи як дехкадаем.
Ману ту шаҳр ба шаҳр,
Кўх ба кўх
Аз Бухорой суҳан омадаем.

То баландои аноҳитой
Кўхҳои ману ту ҳамназаранд.
То Бағоняшти Спитомино
Рўдҳои ману ту ҳамсафаранд... [15,24]

(Мазмуни: Мен билан сен бир қатортоғ, бир қишлоқнинг фарзандимиз. Мен ва сен шаҳарма шаҳар, тоғма тоғ сўз Бухоросидан келганмиз.

Аноҳитойи баландликкача бизнинг тоғларимиз ҳамназар, Спитамен Бағоняштигача бизнинг дарёларимиз ҳамсафардирлар...)

Бағишлов шеъри кутлов, хотира, марсия шаклида юқорида номлари тилга олинган ва бошқа ўзбекистонлик тожик ва ўзбек [12] шоирлари ашъорида кўзга ташланади. Марсиягўйлик адабиётимизда қадимдан мавжуд бўлиб, ҳозирги адабиётда унинг ўрнида хотира манзумалар ҳам айtilган. Масалан, шоир Акбар Пирузийнинг “Чамани меҳр” (“Меҳр чамани”) мажмуасида 9 та хотира-марсия келтирилган. Булар орасида устод Турсунзодага бағишлангани энг сараси ҳисобланади:

Шаддаи лаъли Бадахшон шеъри ту,
Нури хуршеди дурахшон шеъри ту.
Рўдҳои кўхсорон шеъри ту,
Шуд ливои қахрамонон шеъри ту...
Тоҷи моро, шоиро, дурдонай,
Занди оташзод дар ҳар хонай. [1,88]

(Мазмуни: - Бадахшон лаълининг шодаси, порлоқ қуёшнинг нури. Сенинг шеъринг тоғдан оқадиган дарёлар, қахрамонларнинг байроғидир... Сен бизнинг тожимиз дурисан. Ҳар хонада оловдан вужудга келган Зандсан.)

Бу ҳам ҳозирги шеъриятнинг бир хусусиятидир. Биз тожик адабиётида ватан мадҳи шеърининг мавқеига бағишланган илмий мақолада [14] адабиётшунос Алиасфар Шеърдўстнинг бу турдаги шеърларни тарихий-миллий гуруҳга мансуб деб билганини таъкидлаганмиз. Демак, мадҳа шеъри ўзининг биз кўрсатиб ўтган баъзи хусусиятлари билан ҳозирги миллий демократик жамиятимизда шаклланиб бораётган миллий шеърлар туркумига мансуб. Аммо адабиётшунос ва мунаққид олимлар таъкидлаб ўтганидек, ҳар бир шеър, хоҳ у ишқ, табиат, ёр васфига бағишланган, хоҳ бошқа мавзуларда ёзилган бўлсин, бир томонлама бўлмасдан замирида инсон дарди ва жамият муаммоларини ифодалай олиши керак. Шундагина бу шеърлар юксак эстетик қийматга эга бўлади.

Хулоса. 1.Васф, тараннум, улуғлов ва бағишлов, ҳатто марсия мадҳ шеърининг навълари бўлиб анъанавий мадҳавий назмнинг давоми сифатида бугунги адабиётда ривожланиб келмоқда. Марсия зоҳиран бошқа турдаги шеър кўринсада, ундаги ғам-қайғу ифодаси, одамлар кулфати учун қайғуриш, унга ҳамдардик, умуман инсон омилининг тавсифланиши, кадрланиши нуктаи назаридан мадҳ шеърига моҳиятан яқинроқдир.

2.Мадҳ шеъри янгича – замонавий талқинда ҳозирги тожик адабиётида “миллий ўзликни англаш шеъри” (“шеъри худогоҳии милли”) баробарида ривожланиб, шу жиҳатдан буюк кишиларни улуғлашда ёзилган мадҳавий шеърлар кўпроқ ижтимоий аҳамият касб этмоқда.

3. Она зотини таърифлаб ёзилган васф, мадеҳа шеърлари миллий адабиётда алоҳида ўрин эгаллайди ва ҳатто бу адабий ҳодиса Лойиқ Шералий, Фарзона Хужандий каби шоирлар ижодида анъана шаклига кириб “модарнома” туркумидаги шеърлар вужудга келишига сабаб бўлди.

3. Гоҳида мадҳ, бағишлов мазмунидаги шеърлардан тамаллук хиди ҳам келади ва уларда шахспарастилик оҳанги сезилади. Таъкидлаш жоизки, бу мавзудаги шеърларда буюк сиймолар тараннуми инсонларда ўзликни англаш, ватан туйғуси, инсонпарварлик каби гўзал фазилатларни тарбиялашда хизмат қилиши асил адабиётнинг эзгу мақсадидир.

Адабиёт:

1. Акбар Пирўзи. Чамани меҳр. Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016, 184 с.
2. Алиасғари Шеърдўст. Чашмандози шеъри имрўзи тоҷик. Д.: Адиб, 1997
3. Бозор Собир. Мижғони шаб. Душанбе: Ирфон, 1981, 176 с.
4. Бозор Собир. Аз “Тули хор” то “Симхор”. Москва: Интрансдорнаука, 2003, 256 с.
5. Гулшани адаб. (Намунаҳои назми форсу тоҷик. Асрҳои IX-XIII), қ. I. Душанбе: ирфон, 1973, 432 с.
6. Девони Рўдакӣ. Душанбе: Бухоро, 2015. – 332 саҳ.
7. Лоик Шералий. Куллиёт. Иборат аз ду ҷилд. Ҷилди 1. Ашъор. – Душанбе, “Адиб”, 2008. – 564 саҳ.
8. Муҳаммадҷон Шакурии Бухороӣ. Нигоҳе ба адабиёти тоҷикии садаи бист, Д.: Пайванд, 2006, 456 с.
9. Маъруф Раҷабӣ. Сабақҳои сиёсати адабӣ // “Адабиёт ва санъат”, 1992, №19
10. Салим Кенча. Умри гул. Тошкент: Мухаррир, 2011, 64 с.
11. Садриддини Ҳушёрӣ. Бӯйи модар. Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2017 -191 саҳ.
12. Самарқанд мушоираси (Ёшлар баёзи). Тошкент: Sahhof, 2020. -304 б.
13. Ҳудоназари Оқсой. Сухани вопасин. Тошкент: Тамаддун, 2018, 120 с.
14. Ҳазраткулиён Дилшода. Вижагиҳои шеъри ватанситой. // Дурдонаи Шарқ (Маҷаллаи адабӣ, илмӣ ва маданияти тоҷикони Ўзбекистон), №2/2022
15. Ҷаъфар Муҳаммад. Ошиқи ишқ. Тошкент: Yangi nashr, 2011.-136 саҳ.



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Qodirova Fazilat Shukurovna


(PhD), docent Head of the Management of the Department Human Capital Development in the Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan,

Ayakulov Nurbek Abdug`appor o`g`li (PhD),

Chief specialist in the development of scientific activity in the Syrdarya regional department of innovative development, under the Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan

Ayakulova Aziza Ismatulla qizi

Independent Researcher of Gulistan State University

PROBLEMS OF SYNONYMY AND ANTONYMY OF TERMS – THEORETICAL REVIEW
 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>
ANNOTATION

In the following article, we will discuss such linguistic properties of the language of special purposes as synonymy, antonymy and polysemy. If in the general vocabulary these phenomena are presented sequentially, then in the special vocabulary they have their own characteristics. So, unambiguity has always been singled out as the desired requirements for terms, when one word has one meaning. This means that the term has no polysemantic relations, synonyms, antonyms. Modern studies of terminological units prove that in practice the situation is different. Within special areas of knowledge, there is a continuous replenishment and updating of lexical units, often ahead of the development of general vocabulary, where there is no urgent need to replenish and expand the vocabulary.

Key words: term, synonymy, antonymy, polysemy, lexicon, linguistic research, terminological units.

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада биз махсус мақсадли тилнинг синонимия, антонимия ва полисемия каби лингвистик хусусиятларини муҳокама қиламиз. Агар умумий луғатда бу ҳодисалар кетма-кет берилган бўлса, махсус луғатда улар ўзига хос хусусиятларга эга. Шундай қилиб, бир сўз бир маънога эга бўлганда, терминларга қўйиладиган талаб сифатида ҳар доим бир маънолилик ажратиб кўрсатилган. Демак, атаманинг полисемантик алоқалари, синонимлари, антонимлари йўқ. Терминологик бирликларнинг замонавий тадқиқотлари амалда вазият бошқача эканлигини кўрсатади. Муайян билим соҳаларида лексик бирликларнинг доимий равишда тўлдирилиши ва янгиланиши мавжуд бўлиб, аксарият ҳолларда умумий лексика ривожланишидан олдин луғатни тўлдириш ва кенгайтириш эҳтиёжини келтириб чиқаради.

Калит сўзлар: термин, синонимия, антонимия, полисемия, лексика, лингвистик тадқиқотлар, терминологик бирликлар.

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы обсудим лингвистические особенности языка специального назначения, такие как синонимия, антонимия и полисемия. Если в общем словаре эти события даны последовательно, то в специальном словаре они имеют свои особенности. Таким образом, когда слово имеет единственное значение, однозначность всегда выделяется как требование к терминам. Итак, термин не имеет многозначных отношений, синонимов, антонимов. Современные исследования терминологических единиц показывают, что на практике дело обстоит иначе. В специальных областях знаний происходит постоянное пополнение и обновление лексических единиц, нередко до освоения общей лексики, что создает здесь потребность в пополнении и расширении словарного запаса.

Ключевые слова: термин, синонимия, антонимия, полисемия, лексика, лингвистическое исследование, терминологические единицы.

The increase in the number of terminological units is often due to the processes of terminology of commonly used words, as well as various word-formation processes. When analyzing the semantic structure of a term, it seems relevant to refer to the main lexico-semantic phenomena occurring in term systems - synonymy, antonymy, polysemy.

For the implementation of the communicative and expressive function of the language, accuracy, expressiveness, differentiation of concepts and a variety of vocabulary that could convey subtle shades of thought and feelings are necessary. The implementation of all these functions leads to the emergence of synonyms and, as a result, the phenomenon of synonymy.

Synonymy is inherent in both common and special vocabulary. According to the definition of the Linguistic Encyclopedic Dictionary, synonymy is "a type of semantic relations of linguistic units, consisting in the complete or partial coincidence of their meanings. Synonymy reflects the properties of the objective world in the language. The linguistic nature of synonymy is determined by the varying degree of semantic similarity of linguistic units and is explained by the asymmetry of the sign and meaning, their unstable balance.

In synonyms, a more subtle differentiation of concepts is fixed, their features are clarified, the attitude of the speaker to the subject of speech is expressed, and the richness of the experience of the people is fixed. Therefore, "it is necessary to consider synonyms not so much as words that can replace each other, but as words that clarify the thought and attitude to what is being expressed".

According to D.N. Shmelev, synonyms are words of the same part of speech, the meanings of which contain both identical and different elements. In some contexts, synonyms can be interchangeable, while in others, on the contrary, incompatibility of features is found. "Synonyms can be recognized as words that are opposed only by such semantic features that in certain contexts become irrelevant". Since the number of identical semantic elements for different rows of words is not always the same, we are talking about different degrees of synonymy for different words.

According to Z.A. Kharitonchik, "the differences between synonyms do not pass along the line of their lexical meanings, taken in their entirety, but concern only some semantic components of lexical meanings with the obligatory generality of other parts of the structure of lexical meaning.

Expressions correlated with one concept form a "series of terms", the members of this family are synonymous terms. "Synonyms are words with similar, but not identical meanings, each word in the synonymic series has its own" group of meanings".

According to M.V. Nikitin, synonymy is "the phenomenon of switching in the meaning of signs from one meaningful aspect to another, namely, switching the cognitive content of a sign to a plane of pragmatic meaning". This semantic transition of the sign from the cognitive plane to the pragmatic one is based on the correlation between cognitive and pragmatic aspects of the sign. Thus, synonymy is observed when "synonyms are equated to the dominant of the synonymic series, differing from it by pragmatic additions".

Giving a definition of the concept of a synonym Y.D. Apresyan writes that "words that completely coincide in meaning are increasingly considered as lexical doublets, variants, etc., and words that certainly differ in meaning are beginning to be considered genuine synonyms". Y.D.

Apresyan distinguishes four groups of differences: semantic, evaluative, differences in semantic associations, differences in logical accents.

In common vocabulary, synonymy is considered as a positive phenomenon that creates expressiveness of speech and stylistic coloring of texts, however, in terminology, the phenomenon of synonymy is usually interpreted as a lack of terminology, which leads to redundancy in the means of naming concepts and, as a result, to difficulties in mutual understanding. "The problem of synonymy of terms, i.e. the use of several special lexical units for naming one concept is one of the most important problems of terminology".

We believe that "even a slight difference in words that are close in meaning indicates that we are dealing with two close, but nonetheless different concepts and, therefore, different terms. If the terms mean the same concept, then they, as a rule, are absolute equivalents in meaning".

Depending on how the elements of a synonymic pair differ from each other, ideographic (semantic) synonyms are distinguished, when synonyms have different shades of meaning, stylistic, differing in stylistic coloring and scope, and equivalent (absolute). Since the goal of scientific speech is to convey information, and not to achieve stylistic effects, stylistic synonyms in terminology are rare. Equivalent or absolute terms-synonyms we will call doublets. We believed that one of the important tasks of streamlining any terminology is to distinguish between synonyms and doublets, where "synonyms are different words, and doublets are variants of the same word."

According to B.N. Golovin, "specialists are always interested in the fact that the meaning of the term is clear and one and only. This saves the participants in communication from disagreement in the understanding and application of the same terms, reduces losses in the perception and assimilation of information". However, despite the fact that ideal requirements are imposed on the term - unambiguity and accuracy, the specificity of scientific thinking is such that it does not allow them to be met. "Thinking and the process of labor development of the world continuously gives rise to a change in the boundaries of established concepts, especially in the field of theory, and creates new concepts that require verbal, terminological designation and expression". As M.V. Nikitin "synonymy is not only a vocabulary of language, but even more a communicative-pragmatic speech action".

Thus, despite the desire for "ideal" terms as tools of cognition, in practice they often turn out to be far from ideal. Terminologists noted that "in all areas of terminological vocabulary there are a large number of synonyms, and some types of synonymy of terms are of a regular nature". It seems that the long-term practice of terminology, which confirms the existence of actual synonymy of terms, cannot be rejected, and one should study terms and term systems as they are, and analyze the synonymy of terms in the course of studying lexico-semantic phenomena in terminology. In this paper, we will understand synonymous terms as terms of the same language with a similar but not identical meaning.

In addition to the phenomenon of synonymy, semantic relations in the lexical system of the language are complemented by antonymy. Antonymic relations of terminological units are one of the manifestations of the systemic nature of terminology. In our mind antonyms are words with opposite meanings, that is, correlated with concepts that have opposite qualities". "Antonymy belongs to the most important semantic relations that form the simplest type of structure, or a contrastive set".

M.V. Nikitin points out the following paradoxical fact: despite the fact that the meanings of antonyms are opposite, these words "are among the closest semantic rapprochements in the vocabulary". The abundance of units opposite in meaning is associated with the desire of a person to place the accumulated experience on the polar points of the scales. As a result of this process, groups of lexical meanings are formed. If the speaker knows the meaning of one of the members of the group, he can understand the meaning of all the other members of this group, since the members of the opposition are not presented to the addressee without the presence of this opposition.

According to Uzbek linguists "antonyms have opposite or reverse, but not contradictory meanings". Antonyms are characterized by a semantic commonality, which can manifest itself in the "correlation of meanings", belonging to the same "lexico-semantic paradigm", the expression of the same generic concept. "It is obligatory for antonyms to designate qualitative features that allow

grading, so that between the two poles of a feature whose names are the corresponding antonyms, a middle (zero) term is always possible”.

The phenomenon of antonymy, manifested in the existence of words with opposite meanings, is widespread in the language of science.

The prerequisite for the emergence of antonymy is the fact that the differences that exist in objective reality are reflected in the language in the form of antonymic meanings. According to the history of thought, concepts are born in pairs. Any concept that arises in a language carries its own opposite.

In terminology, antonymy helps to highlight the extreme points of the terminological field and "acts as one of the regular principles for naming concepts with opposite content".

It is necessary to answer the question under what conditions the signs are considered opposite. Opposite is that which is maximally different in terms of the feature underlying the comparison. So, hot and cold are based on a common parameter: temperature is a deviation from a certain standard. Similarly, hard and soft are based on a common parameter: tactility - a deviation from a certain norm.

In this article, we believe that in order for two concepts-meanings to be considered opposite, it is necessary that their content either be exhausted by opposite semantic features, or, if they have a common generic feature, their specific (differential) features should be opposite. Thus, words enter into antonymous relations if their lexical meanings are characterized by the presence of opposite semantic features.

So, as a result of linguistic research, important criteria of the terminological system were identified, which determine its features as a subsystem of the literary language: synonymy and antonymy.

List of used literatures

1. Yazikoznanie. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar / Gl. red. V. N. Yarseva. – 2-ye izd. – M.: Bolshaya rossiyskaya ensiklopediya, 1998. – 685s.
2. Arnold I.V. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka: Ucheb. posobie / I.V. Arnold – 2-ye izd., pererab. – M.: FLINTA: Nauka, 2012.
3. Булыгина Т.В., Шмелев А.Д. Языковая концептуализация мира (на материале русской грамматики). – М.: Языки славянской культуры, 1997. – 577 с.
4. Харитончик З.А. Лексикология английского языка: Учеб. пособие. – Минск. Выssh. shk., 1992. – С. – 93.
5. Superanskaya A.V., Podolskaya N.V., Vasileva N.V. Общая терминология: Вопросы теории / Отв. ред. Т.Л. Кандеки. Изд. 6-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ». 2012.
6. Nikitin M.V. Kurs lingvisticheskoy semantiki: Uchebnoe posobie. — 2-ye izd., dop. i ispr. — SPb.: Izd-vo RGPU im. A. I. Gersena, 2007. – S. – 393.
7. Nikitin M.V. Kurs lingvisticheskoy semantiki: Uchebnoe posobie. — 2-ye izd., dop. i ispr. — SPb.: Izd-vo RGPU im. A. I. Gersena, 2007. – S. – 395.
8. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Том I. Лексическая семантика (синонимические средства языка): 2-изд., ispr. i dop. - М.: Языки русской культуры, 1995. – S. – 217.
9. Grinev-Grinevich S.V. Terminovedenie. Uchebnoe posobie. — М.: Akademiya, 2008. – S. – 102.
10. Golovin B.N. Lingvisticheskie osnovy ucheniya o terminax. — М.: Выsshaya shkola, 1987.
11. Nikitin M.V. Kurs lingvisticheskoy semantiki: Uchebnoe posobie. — 2-ye izd., dop. i ispr. — SPb.: Izd-vo RGPU im. A. I. Gersena, 2007. – S. – 394.
12. Харитончик З.А. Лексикология английского языка: Учеб. пособие. – Минск. Выssh. shk., 1992. – С. – 93.
13. Nikitin M.V. Kurs lingvisticheskoy semantiki: Uchebnoe posobie. — 2-ye izd., dop. i ispr. — SPb.: Izd-vo RGPU im. A. I. Gersena, 2007. – S. – 398.
14. Golovin B.N., Kobrin R.Yu. Lingvisticheskie osnovy ucheniya o terminax. М.: Выsshaya shkola, 1987. – S. - 58.




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Ахмедова Дилдора Баходировна,
Бухоро давлат университети докторанти (DSc)

ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ЭТИМОЛОГИК ЛУҒАТИ – КОРПУС СЕМАНТИК КЕНГАЙТМАСИНИНГ АХБОРОТ БАЗАСИ

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада ўзбек тили лексик бирликлари семантик кенгайтмаларини ишлаб чиқишда ўзбек тилининг этимологик луғати ахборот манбаи сифатида хизмат қилиши бир қанча мисоллар орқали очиб берилган. Шунингдек, сўз тилининг тарихий тараққиёти давомида мазмунан ўзгармай, товуш жиҳатидан ўзгариши, омонимия ҳодисалари таҳлилга тортилган. “Ўзбек тилининг этимологик луғати”дан кенг жамоатчилик фойдаланишини кўзда тутсак, шарҳлар оммабоп йўсинда, ихчам тарзда баён қилинганлиги, бу эса семантик кенгайтма изоҳларини ишлаб чиқишда қулайлик бериши таъкидланади. Тил корпуси ёки бошқа ахборот кидирув воситаларидан кенг жамоатчилик фойдаланади. Бу эса семантик кенгайтма услубини соддалаштиришни тақозо этиши борасидаги мулоҳазалар баён қилинган.

Таянч сўз: семантик кенгайтма, этимология, лексикография, тил корпуслари, ахборот кидирув воситалари, семантик синкретизм, омонимия.

Ахмедова Дилдора Баходировна,
Докторант Бухарского государственного университета

ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ СЛОВАРЬ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА – ИНФОРМАЦИОННАЯ БАЗА СЕМАНТИЧЕСКОГО РАСШИРЕНИЯ КОРПУСОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье этимологический словарь узбекского языка служит источником информации при разработке семантических расширений лексических единиц узбекского языка на нескольких примерах. Также в ходе исторического развития языка слово меняется не по содержанию, а по звучанию, анализируются явления омонимии. Учитывая широкое общественное использование «Этимологического словаря узбекского языка», отмечается, что комментарии изложены популярно, лаконично, что облегчает разработку смыслового расширения комментариев. Лингвистические корпуса или другие средства поиска информации используются широкой публикой. Говорят, что это требует упрощения метода семантического расширения.

Ключевые слова: семантическое расширение, этимология, лексикография, языковые корпуса, средства поиска информации, семантический синкретизм, омонимия.

Akhmedova Dildora Bakhodirovna,
Doctoral student (DSc) of Bukhara State University

ETYMOLOGICAL DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE – INFORMATION BASE OF CORPUS SEMANTIC EXPANSION

ANNOTATION

In this article, the etymological dictionary of the Uzbek language serves as a source of information in the development of semantic extensions of the lexical units of the Uzbek language through several examples. Also, during the historical development of the language, the word does not change in content, but changes in sound, phenomena of homonymy are analyzed. Considering the wide public use of the "Etymological Dictionary of the Uzbek Language", it is noted that the comments are presented in a popular way, concisely, which facilitates the development of semantic extension comments. Linguistic corpora or other information retrieval tools are used by the general public. It is said that this requires simplification of the semantic extension method.

Key words: semantic extension, etymology, lexicography, language corpora, information search tools, semantic syncretism, homonymy.

Сўзнинг маъносини изоҳлашда унинг этимологик хусусиятларини ифодалаш ниҳоятда муҳим. Шундай экан, ўзбек тили лексик бирликлари семантик кенгайтмаларини ишлаб чиқишда ўзбек тилининг этимологик луғати ахборот манбаи сифатида хизмат қилади. Маълумки, жаҳон лексикографиясида этимологик луғат тузиш тажрибаси кенг оммалашган бўлса-да, ўзбек тилининг этимологик луғатини тузиш ишлари ўзбек лексикографияси ривожининг илк йилларига тўғри келмайди. XX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб турли умумий ва махсус лингвистик луғатлар нашр этилганлигига қарамай, ўзбек тили этимологик луғати устидаги ишлар кечикаётгани. Ўзбек тилининг этимологик луғати нашри хусусида муаллиф шундай ёзади: “Ўзбек тилининг этимологик луғатини тузишга интилганлар бўлди, лекин илмий ишларда айрим сўзларга тарихий-этимологик изоҳ беришдан нарига ўтилмади. Дахрнинг кажрафторини қарангки, бундай луғат тузиш менинг зиммамга юкланди. Мен бу ишга академик Тўрабек Долимовнинг ТошДУ илмий ишлар бўйича проректори давридаги қатъий даъватидан кейингина рози бўлдим: “Бошқа тиллар, шу жумладан, рус тили бўйича этимологик луғат тузилган-у, нимага бундай луғат ўзбек тили бўйича тузилмаган?! Албатта тузиш керак. Майли, қисқа бўлсин, содда бўлсин, лекин бошлаб беринг”. Бир қанча манбаларни ўрганиб, ўзбек тили луғатининг тарихий тадрижини озми-кўпми англай бошлаганимдан кейингина бу савобли ишни бажаришга жазм қилдим. Бажарилган ишнинг натижаси 1997-1999-йилларда “Ўзбек тилининг қисқа этимологик луғати” номи билан чоп қилинган тўрт китобчада ўз аксини топди”. Маълум бўладики, ўзбек тилининг дастлабки этимологик луғати XX асрнинг сўнгги йилларига тўғри келади. Муаллифнинг таъкидлашича, луғатдаги барча мақолаларни бевосита ўзи тузган. Бажарган ишини синовдан ўтказиш мақсадида бошқа мутахассисларни жалб қилган. Мақолаларнинг маълум бир қисмини **а, и** ҳарфлари бўйича проф. М.Миртожиев, **у, э, ў, г, д, ж, к, т** ҳарфлари бўйича доц. М.Қодиров тузган. Ш.Раҳматуллаев эса буларнинг мақолаларини ўзи тузган мақолаларга таққослаган, луғат мақоласини шакллантиришда улардан фойдаланган.

2000 йилдаги нашрдаги сўзлик “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” бўйича тузилган. Дастлаб ўзбек адабий тили луғат бойлигидаги туркий қатламга этимологик изоҳ бериш мақсад қилиб олингани туфайли ушбу изоҳли луғатдаги бошқа тиллардан олинган сўзлар қамраб олинмаган, шу билан бирга бошқа тиллардан олинган сўзлар асосида ясалган, тузилган сўзлар ҳам сўзликка киритилмаган. Муаллифнинг таъкидлашича, шундай чегиришлардан кейин ажратилган туркий сўзларнинг жуда катта қисми этимологик изоҳга муҳтож эмас. Этимологик изоҳ бериш лозим сўзларнинг бир қисмига эса бугунги кунда шундай изоҳ бериш учун имкон йўқ. Хуллас, юқоридаги чекланишлардан кейин ушбу луғатда 2400 дан ортиқ сўз қамраб олинди. Бу миқдорни шева сўзлари ҳисобига, туркий сўзга бошқа тилдан олинган кўшимчани қўшиб ясалган сўзлар ҳисобига бойитиш мумкин. Юқоридаги ахборотга таяниб айтиш

мумкинки, ўзбек тилидаги 80000 сўз ва сўз бирикмаси учун семантик кенгайтма тузишда уларнинг барчасида этимологик тавсиф келтирилмайди. Чунки семантик кенгайтмадаги этимологик тавсиф (бошқа изоҳлар каби) фақат ахборот манбаи, яъни ўзбек тилининг этимологик луғатидан олинади.

Луғатдан кенг жамоатчилик фойдаланишини кўзда тутиб тилшунослик терминлари деярли ишлатилмаганлиги, шарҳлар оммабоп йўсинда, ихчам тарзда баён қилинганлиги таъкидланади. Бу эса семантик кенгайтма изоҳларини ишлаб чиқишда бизга қулайлик беради. Чунки тил корпуси ёки бошқа ахборот қидирув воситаларидан кенг жамоатчилик фойдаланади. Бу эса семантик кенгайтма услубини соддалаштиришни тақозо этади.

Қўшимча қўшиш билан янги сўз юзага келса, “ясалган” сўзи, грамматик шакл юзага келса, “ҳосил қилинган” сўзи ишлатилган. Асос билан қўшимча орасига қўшув аломати, булар билан ҳосила орасига баробар аломати қўйилди. Сўз қисмлари орасидаги муносабатни кўрсатишда қавслардан фойдаланилди. Товуш жиҳатидан ўзгарган сўзнинг олдинги ва кейинги шакли ўтиш белгиси (>) ёрдамида кўрсатилган. Биз ҳам семантик кенгайтмада худди шу белгиларни сақлаб қолишни маъқуллаймиз.

Сўзларга этимологик талқин одатда икки жиҳатдан берилади: 1) мазмун жиҳатдан; 2) шакл (товуш) жиҳатдан. Мазмун жиҳатидан талқин бериш туб деб қаралувчи сўзларда ясама деб қаралувчи сўзларга нисбатан қийин. Этимологик луғат мақоласининг тузилиши куйидагича:

АВАЙЛА – “эҳтиёт қил” – *Сени авайлаб ўстирдим*. Бу феъл асли айрим туркий тилларда, шу жумладан, қирғиз тилида мустақил ишлатилиб, “эҳтиёткорлик” маъносини англатувчи абай отидан *-ла* қўшимчаси билан ясалган; кейинчалик ўзбек тилида икки унли ораллиғидаги *б* ундоши *в* ундошига, *а* унлилари эса *ä* унлиларига алмашган: *абай+ла = абайла > äбäйлä*.

Ёки бошқа бир изоҳга, омоним сўзларнинг берилишига эътибор қаратамиз:

АДАШ I “исми бир хил (кишилар)”. *Иккимиз адашимиз*. Бу сўз қадимги туркий тилдаги “исм” маъносини англатувчи а:т сўзининг ат шаклидан *-даш* қўшимчаси билан ясалган (ЭСТЯ, 1, 204), кейинчалик т ундоши д ундошининг таъсирида д ундошига алмашган, сўнгра дд ундошларидан бири талаффуз қилинмай қўйган (ТРС, 15); ўзбек тилида *а* унлилари *ä* унлиларига алмашган: *ат-даш = атдаш > аддаш > адаш > äдäш*.

АДАШ II: АДАШ БЎЛ- “оёқ кийимининг пойи бошқа бир оёқ кийимининг бир пойи билан алмашиб қол-”. *Кечаги йигинда бир пой калшим адаш бўлиб қолибди*. Бу сўз *äдäш*-феълнинг эски ўзбек тилидаги исм эши бўлиб, мустақил ишлатилмайди, *äдäш бол-* қўшма сўзи таркибида келади.

АДАШ- “тўғри йўлни йўқот-”, “янглиш-”. *Қоронги тушганидан кейин адашиб қолдим*. Бу сўз асли қадимги туркий тилдаги “тўғри йўлни йўқот-” маъносини англатувчи *а:з*-феълнинг *а:д*- шаклидан “бироз” маъносини ифодаловчи *-(а)ш* қўшимчаси билан ҳосил қилинган (ЭСТЯ, I: 95), кейинроқ *а:* унлисининг чўзиқлик белгиси йўқолган (КРС, 22); бу сўз дастлаб “тўғри йўлдан бироз четга чиқ-” маъносини англатган. Ўзбек тилида *а* унлилари *ä* унлиларига алмашган: *(а:з- > а:д-) +аш = а:даш- > адаш- > äдäш*.

Сўз тилнинг тарихий тараққиёти давомида мазмунан ўзгармай, товуш жиҳатидан ўзгарган бўлиши мумкин. Луғат мақолаларида ана шундай товуш ўзгаришлари қадимги туркий тилдан ҳозирги ўзбек тилига қадар қандай воқе бўлгани баён қилинган.

Луғат муаллифининг таъкидлашича, ҳозирги ўзбек адабий тилидаги сўзларга товуш томонидан этимологик талқин беришда қадимги туркий тилдаги унлиларга қаттиқ-юмшоқлик жиҳатидан хос бу белгиси ўзбек тилининг айрим шеваларида ўз кучини қисман сақлаган бўлса ҳам, адабий тилда инobatга олинмайди.

Қадимги туркий тилда, масалан, “ич томонга торт-” маъносини англатган ол- (ўп-) феълдан “бўса ол-” маъносини англатган өп- (ўп-), “ўроқ билан кес-” маъносини англатган ор- (ўр-) феълдан “сахн бўйлаб ҳаракатлан” маъносини англатган өр- (ўр-) феъли, “ҳаво бўйлаб ҳаракатлан-” маъносини англатган уч-феълдан “икки билан тўрт ораллиғидаги бутун миқдор сон” маъносини англатган уч сўзи, “майса маъносини англатган от (ўт) отидан “бир

жойдан иккинчи жойга ҳаракатлан-” маъносини англаган от- феъли унли товушининг юмшоқлиги билан фарқланган. Булардан англашиладики, семантик кенгайтмада товушлар билан маъно фарқланадиган ҳар қандай ҳолат акс этиши керак.

Шунингдек, Ш.Раҳматуллаев куйидаги масалага эътиборимизни қаратади: “Қадимги туркий тилда (шунингдек ҳозирги туркий тилларнинг кўпчилигида) унлиларнинг қисқа-чўзиқлиги ҳам сўзларни ўзаро фарқлашга хизмат қилган. Қадимги туркий тилда “асп (иш хайвони)” маъносини англаувчи ат (от) сўзи билан “исм” маъносини англаувчи а:т сўзи ўзаро унли товушининг қисқа/чўзиқлиги билан фарқланган; “ковла” маъносини англаган оч-феълидан, “очиққан” маъносини англаувчи а:ч сифати “очиқ ҳолатга келтир-” маъносини англаувчи ач- феълидан унли товушининг чўзиқлиги билан фарқланган”.

Қадимги туркий тилга хос ҳодисалардан бири – таг маъноси бир хил асоснинг икки сўз сифатида ишлатилиши. Бундай асоснинг ҳам феъл, ҳам от бўлиб, қисман ҳам от, ҳам сифат бўлиб маъно тармоқланиши ҳодисасини қадимги туркий тилга нисбатан семантик синкретизм деб номлаб, омонимлардан фарқлаш тўғри (Э.В.Севортян. Этимологический словарь тюркских языков. I, 40). Асли омонимлар деб турли товуш ўзгаришлари натижасида, сўз ўзлаштириш оқибатида тасодифан шаклан бир хил бўлиб қолган сўзларга айтилади. Қадимги туркий тилдаги ҳодиса эса тамоман бошқача табиатга эга бўлиб, икки ҳар хил туркум маъносининг бир асос билан англашишига тенг. Бу ҳодисани шартли равишдагина семантик омоним деб юритиш мумкин. Масалан, қадимги туркий тилда “ковла-” маъносини ҳам, “чукур” маъносини ҳам ор сўзи англаган. Кейинчалик кўпчилик туркий тилларда, шу жумладан ўзбек тилида ҳам ор- феъли истемолдан чиққан, ор оти эса сақланган. Шунингдек, “аланга ол-” маъноси от- сўзи билан, “аланга” маъноси о:т сўзи билан англашилган; кейинчилик от- феъли истемолдан чиқиб кетган, ҳозирги ўзбек тилида от отигина мавжуд. Юқоридаги жуфтликларда таг маъно бир хил, икки сўз ана шу таг маънонинг гўё тармоқланиши натижасида юзага келган; бундан қатъий назар, биринчи жуфтликда унлилар орасида фарқ кўринмаса, иккинчи жуфтликда унлилар қисқа-чўзиқлиги жиҳатидан фарқланган. Хуллас, бу ҳодиса замирида маъно тараққиёти ётади. Бундай маъно тараққиёти натижасида бир туркум сўздан бошқа бир туркум сўзи ўсиб чиқади. Бундай маъно тараққиёти қадимги туркий тилдан то ҳозирги кунгача давом этиб келади. Этимологик луғатда ана шундай жараённи ҳам тўғри акс этиришга ҳаракат қилинган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. (туркий сўзлар). – Тошкент: “Университет”, 2000. – 600 б.
2. Э.В.Севортян. Этимологический словарь тюркских языков. I, 40
3. Кустова Г.И., Ляшевская О.Н., Падучева Е.В., Рахилина Е.В. Семантическая разметка лексики в национальном корпусе русского языка: принципы, проблемы, перспективы \\ (Электрон ресурс): <http://ruscorpora.ru/sbornik2005/10kustova.pdf>;
4. Муҳаммедова С. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. – Тошкент, 2006.
5. Абдурахмонова Н.З. Инглизча матнларни ўзбек тилига таржима қилиш дастурининг лингвистик таъминоти (Содда гаплар мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. автореф. – Тошкент, 2018. – 52 б.
6. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...диссер. – Қарши, 2018. – 250 б.
7. Эшмўминов А.А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD)...диссер. – Қарши, 2019. – 140 б.
8. Ахмедова Д.Б. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик - семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. бўйича фал. доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2020. – 247 б.

9. Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дис.автореф. – Термиз, 2021. – 48 б.
10. https://classes.ru/grammar/174.Akhmanova/source/worddocuments/_18.htm
11. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Абдусаламова Лобар Акбар кизи
 “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос
 халқаро университети, докторант
 e-mail: cool.abdusalamova@mail.ru

ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ ИЖОДИНИ ДАВРЛАШТИРИШ МАСАЛАСИГА ДОИР: ОДОРОКОЛОРИСТИК МОТИВЛАРНИ ЎРГАНИШ АСПЕКТИДА

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

АННОТАЦИЯ

Замонавий адабиётшуносликда Ч. Айтматов ижоди, унинг маънавий-руҳий камолоти ҳамда ижодий эволюциясини босқичларга бўлиш, даврлаштирилиш алоҳида ёндошув ва батафсиллик талаб қилади. Бу ва бошқа қатор баҳсли ҳамда ўз ечимини кутиб турган муаммолар адабиётшунослик олдида турган долзарб масалалардандир. Шунингдек, ёзувчи ижодида, асарлари матнида одороколофоник деталлар – ҳид – одоризмлар, ранг-колористика ҳамда фоник ёки фонологик-товушни англатувчи лексема-деталлар жуда катта аҳамиятга эгадир. Улар муаллифнинг бадиий тасвир воситалари қаторида алоҳида ўрин эгаллаб, Ч.Айтматовнинг кичик насри – ҳикояларидан бошлаб, асосий йирик қисса романларига қадар изчил ҳамда тизимли фойдаланилади ва матнда матлақо алоҳида бадиий эстетик ҳамда ўрни-ўрни билан шакл яратувчанлик вазифаларини бажаради. Мазкур мақолада биз Чингиз Айтматов ижодини даврлаштириш тажрибасига диққат қилиниб, ёзувчи асарларининг номланишидаги одороколофоник деталларга эътибор қаратилган.

Таянч сўзлар: абадийлик, одороколофоник деталлар, бадиий тасвир воситалари, мотив, бадиий эстетик ғоя, замонавий адабиётшунослик.

Абдусаламова Лобар Акбар кизи,
 Международный университет туризма и культурного
 наследия «Шелковый путь», докторант
 e-mail: cool.abdusalamova@mail.ru

К ВОПРОСУ ПЕРИОДИЗАЦИИ ТВОРЧЕСТВА ЧИНГИЗ АЙТМАТОВА: В АСПЕКТЕ ИЗУЧЕНИЯ ОДОРОКОЛОФОНИЧЕСКИХ МОТИВОВ

АННОТАЦИЯ

Существующая в современном литературоведении периодизация творчества Ч. Айтматова, исходя из его духовного взросления и творческой эволюции, требуют особого подхода и детализации. Эти и ряд других дискуссионных и нерешенных вопросов относятся к числу наиболее актуальных проблем, стоящих перед литературоведением, в частности айтматоведением. Также в творчестве автора, в тексте его произведений большое значение имеют одороколофонические детали - одоризм - запахи, колористика-цвет, фонологические

лексемь- детали, репрезентирующие фонетическое или звуковое. Они занимают особое место среди авторских средств художественной выразительности, последовательно и систематически используются в названиях от кратких прозаических рассказов Чингиза Айтматова до крупных романов, а тексте выполняют особую художественно-эстетическую и формообразующую функцию. В данной статье мы ориентируемся на опыт периодизации творчества Чингиза Айтматова, акцентируя внимание на одороколофонических деталях в именовании авторских произведений.

Ключевые слова: вечность, одороколофонические детали, средства художественной образности, мотив, художественно-эстетическая идея, современная литература.

Abdusalomova Lobar Akbar kizi,
International University of Tourism and Cultural
Heritage "Silk Road", doctoral student
e-mail: cool.abdusalomova@mail.ru

LOOK TO CHINGIZ AITMATOV'S WORK: IN THE ASPECT OF STUDYING ODOROCOLORISTIC MOTIVES

ANNOTATION

In modern literature, the chronology of Ch. Aitmatov's work, his spiritual maturity and creative evolution require a special approach and detail. These and a number of other debatable and unresolved issues are among the most pressing problems that the literature faces with. Also in the author's work, in the text of his works, odorocolophonic details are of great importance - odorism - smells, colors, lexemes - details representing phonetic or sound. They occupy a special place among the author's means of artistic (literary) expression, they are consistently and systematically used from short prose stories by Chingiz Aitmatov to large novels, and the text performs a special artistic, aesthetic and formative function. In this article, we focus on the experience of the chronology of Chingiz Aitmatov's work, focusing on odorocolophonic details in the naming of author's works.

Key words: eternity, odorocolophonic details, means of literary figurativeness, motif, literary and aesthetic idea, modern literature.

Чингиз Айтматов - Евроосиё ёзувчиси, демакки ижоди умумбашарий аҳамиятга эга бўлган, асарлари инсониятнинг XX асрнинг сўнгги чораги ва XXI бошларида яратган қадриятлари сирасига қиради. Унинг асарларининг микро ва макрооламида тоғлик кишилар, кўчманчи одамлар, деҳқон кимсалар, миллати, диний этиқодидан қатъий назар ислом ва туркий дунё, ҳинд тамаддуни ва буддизм, араб-форс фалсафаси, сўнгги асарларида эса, христиан-насронийлик ва рус маданияти ҳамда европача қадриятлар мезони ўзаро қоришиб кетади ва уларнинг барчаси турли-туман кўринишларда ва шаклларда ўзлигини намоён қилади. Ч.Айтматов улкан бетакрор ижодкор сифатида бир умр изланишда, толиқишсиз ҳаракатда ижод қилиб ўтди. Худди Гомер ва Гесиод эллинлар учун маъбудларини яратиб беришгани каби, Чингиз Айтматов ўз миллати учун типик характерларни, образларни, типларни, ҳаракат ва қадрият мезонларини яратиб, кўрсатиб берди. Зеро унинг ижодидида ўзига хос космогония ва мифология зоҳир: бу ерда Шохли Она буғу сайр қилиб юради, ҳамма нарсани кўрувчи ва билувчи Бўтакўз чашмасининг суви кўз олар даражада ярқирайди, муқаддас тераклар-башаротгўй оракуллар шивирлашишади, Эрта учган турналар озод қанот қоқишади, денгиз бўйлаб Олапар мангу югуради, ўзлигини, утмишини унутган, кул одамзот – манкурт – ўз онасига ўқ узади, талвасага тушган Виждон - она бўри Акбара ўзини қўярга жой тополмай ўтовдан ўтовга югуради... Ва бу улкан, ҳали ибтидоийликни сақлаётган табиатда, одамлар, худди антик мифларда бўлгани каби, ўзларининг “дунёларини бунёд қилишга” интилишади: Дюйшен – Олтинойни кутқармоқ учун тоғ руҳлари билан курашади, Чорининг хизматидаги Танабай Авдий отхонаси тозалангани каби – кўтонни тозалайди; Дониёр Гўзал Жамилани ўғирлайди, Авдий ўзгалар учун ўзини қурбон қилади (бу ерда христианлар мифологияси таъсири яққол намоён бўлади).

Бошқа томондан қаралганда, кўз ўнгимизда ҳақсўз тарафдори бўлган, адолатпарвар замондошларимиз қиёфасини кузатамиз: Танабой, Дониёр, Едегей, Авдий... бироқ уларга бадиий матнда юкланган юк анчайин катта ва оғир. Замондошини абадиётга даҳлдор образини яратиш учун Ч.Айтматов уларни мангуликка жойлаштиради, яъни бундай образлар барча жойда, доим ва ҳамиша учрайди, умумбашарий мазмун бағишлайди – уларга хос нарсалар оламда аксариятга хосдир, борлиқнинг мутлақ муаммоларига – умуминсоний ҳаётини ташвиш ва қадриятлар танловига, аралаштиради. Бунинг учун эса, шунчаки ҳаққоний тасвирнинг ўзи етарли эмас. Бунда бугунги, ҳозирги кундан абадийлик сари сакрашга, ёриб ўтишга тўғри келади ва Айтматов ҳар сафар бу ишни амалга оширади, абадийлик бағрига шўнғиб, ўлжасиз қайтмайди. Бекорга Луи Арогондек буюк француз адиби, севги ҳақидаги бутунжаҳон адабиётдаги қиссаларни “Жамила”га алмаштиришга рози бўлмаган эди [1].

Чингиз Айтматов асарларининг бундай умумбашарий муваффақияти замирида, айтилгандек, борлиқни ўзгача идрок этиш билан бир қаторда, уни барча атрибутлари-аломатлари билан ҳам тасвирлаш ётади. Бу маънода ёзувчи асарлари тилида, агар лингвопоэтика нуқтаи назаридан қаралса, одороколофоник деталлар – ҳид – одоризмлар, ранг-колористика ҳамда фоник ёки фонологик-товушни англатувчи лексема-деталлар жуда катта аҳамиятга эгадир. Улар муаллифнинг бадиий тасвир воситалари қаторида алоҳида ўрин эгаллаб, Ч.Айтматовнинг кичик насри – ҳикояларидан бошлаб, асосий йирик қисса романларига қадар изчил ҳамда тизимли фойдаланилади ва матнда матлақо алоҳида бадиий эстетик ҳамда ўрни-ўрни билан шакл яратувчанлик вазифаларини бажаради. Мазкур мақоламизда биз Чингиз Айтматов ижодини даврлаштириш тажрибасига диққат қилиб, ёзувчи асарларининг номланишидаги одороколофоник деталларга эътибор қаратмоқчимиз.

Замонавий адабиётшуносликда (хусусан, монография муаллифи Г.Гачев тадқиқотларида) [2] Ч.Айтматов ижоди, унинг маънавий-руҳий камолоти ҳамда ижодий эволюциясида тўрт босқич таъкидланади. Биринчи босқич – ёзувчи адабий фаолиятининг бошига тўғри келади. “Тоғ ва чўллар қиссаси” – ёзувчи айтиб адабиётга кириб келган сўзларни шундай ихчамласа бўлади, бу даврда у қуйидаги асарларини яратади: “Юзма-юз”, “Жамила”, “Бўтақўз”, “Сарвқомат дилбарим”, “Биринчи муаллим”. У бу асарлари учун 1963 йилда Давлат мукофотига сазовор бўлади. Бу асарлар қаторида фақат “Сарвқомат дилбарим” – “Тополек мой в красной косынке” [3] номланишида “красная косынка” – “қизил рўмол” иборасида ранг-колористик детални кузатамиз. Ҳолбуки, “Бўтақўз” – “Верблюжий глаз”, “Юзма-юз” – “Лицом к лицу” асарларида ҳам яширин ифодаланган колористик оҳорни англаш мумкин.

Ч.Айтматов ижодининг иккинчи даврида “Она макон”, “Алвидо, Гулсари” қиссалари яратилади. Ёзувчи бу даврда яратган асарлари сарлавҳасида ҳам колористик унсур мавжуд. Маълумки, умумтуркий ўзакка эга Гулсари лексемаси замирида (бу ерда отнинг лақаби) “сарик гул” луғавий маъноси ётибди. Қирғизчадан хабардор китобхон буни дарров англайди. Шу билан бирга, омонимлик хусусиятига эга сари-сарик тушунчасининг сара-танланган маъносидаги вариативи ҳам бўлиши мумкинлигини эътиборга олиш жоиз. Бу асарларда муаллиф ўз халқининг тарихи, инқилоб, коллективлаштириш жараёнлари, уруш ҳақида фалсафий-бадиий мушоҳада юритади.

Ижодининг учинчи даври мавзуимиз нуқтаи назаридан ўта қизик бўлган “Оқ кема” (“Эртақдан сўнг”) қиссасидан бошланади. Бу даврда “Эрта учган турналар”, “Денгиз бўйлаб чопаётган Олапар”, Калтай Мухаммеджанов ҳаммуаллифлигида ёзилган “Фудзиямага йўл” пьесаси яратилади. Асарлар услуби, мавзуси, ҳояси ва жанри нуқтаи назаридан бир-бирдан тубдан фарқланади. Бироқ уларни муаллифнинг асарни облазли тузилмасига йирик ҳажм бағишлашга, оддий ва муайян воқеа-ҳодисага умумаҳамият кашф этиришга, ҳикояларни фалсафий мазмунга уйғунлаштиришга бўлган интилиши бирлаштиради. Асарлар сарлавҳасидаги оқ, олапар каби ранг ифодаловчи тушунчаларнинг ёзувчининг ижодий юксалишида алоҳида аҳамият касб этиганлигига эътибор қаратиш лозим. Бу даврда ёзган асарларида ёзувчи инсоний борлиқнинг ибтидосига мурожаат қилади: шахс виждон изтиробига учрайди, жамият ва унинг тарихий фаолияти – табиий офатлар билан юзма-юз

келади. Ёзувчининг бу даврдаги асарлари бадиятида муаллиф бадий эстетикасида кескин рационаллик ва юксак услуб талабчанлиги пайдо бўлиши кузатилиши билан биргаликда, бошқа томондан болаларча ибтидий мифга, эртак ижодкорлигига, ривоятга томон силжиш сезилади. Бунда қахрамонларнинг ҳам ижтимоий мақоми ўзгаради, борлиқнинг у ёки бу даврвосисига келтириб қўйилади: гўдак ва қария, ибтидо ва интиҳо, туғилиш ва ўлим.

Ёзувчининг “Асрга татиғулик кун” ҳамда “Қиёмат” романлари ижодининг тўртинчи фаслида ёзилади. Бу романларда умумбашарий, умуминсоний муаммолар кутарилади ва роман жанри қобиғини ёриб чиқиб синтетик тарзда Хаёт ва Борлиқ Китобига айланади [4, 5].

Ч. Айтматов ўз асарларида, хусусан романларида, санъаткорнинг юксак, олий миссияси, вазифасини бажаради: инсонларнинг руҳий даҳосига, етакчисига айланади – борлиқнинг шундай чуқур қатламларини қовлаштирадики, шундай муаммоларни кутардики, улар дахшатли тарзда ўз ечимини ва сўз воситасида бадий ифодасини тақозо қилади. Бу романларда, уларнинг бадий эстетик ғоясини, бош қахрамонлари характерини очилишида, одороколофонистик мотивлар ва деталларнинг роли катта. Бундай мотив даражасига кутара олинган бадий тасвир воситалари, Ч.Айтматовдек улғу сўз санъаткорининг бадий оламини англашга, бадий матнларини тўғри таржима қилишга, энг муҳими, янги ва келажак авлод томонидан идрок этилишида муҳим аҳамият касб этади.

Биз мақоламизда эътибор қаратганимиз, Чингиз Айтматов ижодининг одороколофоник тасвир воситалари аспекти инобатга олинган ҳолда даврланишида, мутахассислар фақатгина Г.Гачевнинг назарияси ва таснифига таянишганлигига эътибор фаратилди. Ўта кўпдан кўп амалга оширилган ва айтматовшуносликда ўз ўрнига эга бўлган тадқиқотларда ҳам асосан адиб ижодий фаолиятининг даврлаштирилиши борасида ушбу назарияга эътибор қаратилади холос. Холбуки, Ч. Айтматовнинг умрининг сўнгги йилларида “Кассандра тамғаси” ва бошқа бир нечта асарлари, ижоди бошидаги ўнлаб ҳикоялари даврлаштириш принципи нуқтаи назаридан инобат олинмаган. Ёзувчи ижодининг даврлаштирилиши алоҳида ёндошув ва батафсиллик талаб қилади. Бу ва бошқа қатор баҳсли ҳамда ўз ечимини кутиб турган муаммолар адабиётшунослик олдида турган долзарб масалалардандир. Шунингдек, ёзувчи ижодида, асарлари матнида одоризмлар, колористика ва фонология ифодаловчи сўз ва бирикмаларнинг бажарган бадий эстетик функциялар, алоҳида илмий тадқиқотни талаб қиладиган соҳалардан бўлиб турибди. Ўзбек тилига турли таниқли ва эътироф этилган мутаржимлар томонидан амалга оширилган маълум ва машҳур асарларнинг таржима матнларида, ҳаттоки уларнинг айримларини номланишида ҳам, биз бугун эътибор қаратаётганимиз, одороколофоник мотив ва деталлар истъемолида йўқотишларни кузатамиз. Бу эса, Чингиз Айтматов каби даҳо ижодкор асарлари поэтикасида ўта муҳим бадий-эстетик вазифаларни бажарувчи тасвирий воситаларни оригинал матнига хос тарзда сақланиши зарурлигига ва уни илмий тадқиқ этиш масаласи мавжудлигига эътиборни тортади ва бу тадқиқ этилиши лозим бўлган адабиётшунослигимиз олдидаги муҳим илмий муаммолардандир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Арагон Луи. Самая прекрасная на свете повесть о любви.// Культура и жизнь.-1957, №7.
2. Гачев Г. Чингиз Айтматов и мировая литература.-“Киргизистан”.-1982.-278 с.
3. Айтматов Ч. Повести гор и степей.-М.: Художественная литература.- 1980.
4. Woodward J. Chingiz Aitmatov's Second Novel. Michigan: Slavonic and East European Press, 1991. Vol. 7.
5. Укубаева Л.У. Чынгыз Айтматов жана кыргыз адабияты. Бишкек: Турар, 2012. 392 с.
6. Юсупов О.Н. Таржимада маданиятлараро тафовутларнинг ифодаланиши // МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 3.
7. Юсупов, О.Н., 2013. Новые переводы узбекской литературы в английском языке. Ўзбек тили ва адабиёти, 4(4).
8. О.Н. Юсупов. Структура художественного перевода. Вестник НУУ 3 (1), 318-320

9. О.Н.Юсупов, С.Х.Назаров. Трудности перевода: метафора и метонимия в переводе (на материале английского, узбекского и немецкого языков). Актуальные вопросы современной науки. Материалы XIX Международной научно-практической конференции. 2013/4/30. С. 118-121.
10. <http://www.gramota.net/materials/2/2018/8-1/>



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz


Yusupova Guzal Rashitovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

katta o'qituvchisi (PhD)

maryamamirovna142013@mail.ru

NARRATIV TRANSFORMATSIYALAR HIKOYA NUTQINI MODELLASHTIRISHNING ASOSIY VOSITALARIDAN BIRI SIFATIDA

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.0000000>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola narrativ transformatsiyalarini badiiy hikoyani modellashtirish strategiyasi sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotning vazifalari muallifning til tuzilmalarini qasddan deformatsiyasining asosiy motivatsiyasini asoslash va hikoya tuzilmalarini kognitiv modellashtirish jarayonida semantik siqishning ishlash printsipini aniqlashdan iborat. Tadqiqot ob'ekti - muallif tomonidan hikoya transpozitsiyasida kodlangan va badiiy matnni sharhlash jarayonida qabul qiluvchilar ongida aks ettirilgan / paydo bo'ladigan ma'lumotlar.

Kalit so'zlar: narrativ transformatsiyalar, xayoliy (fiktsional) haqiqat, ong oqimi, vaqtning konfiguratsiyalari.

Юсупова Гузал Рашитовна

старший преподаватель (PhD)

Самаркандского государственного

института иностранных языков

maryamamirovna142013@mail.ru

НАРРАТИВНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ, КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ МОДЕЛИРОВАНИЯ ПОВЕСТВОВАТЕЛЬНОГО ДИСКУРСА

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье рассматриваются нарративные трансформации в качестве стратегий моделирования художественного нарратива. В задачи исследования входят обоснование основной мотивации авторской намеренной деформации языковых структур и определение принципа работы семантической компрессии в процессе когнитивного моделирования нарративных структур. Объектом исследования является информация, закодированная автором в нарративных транспозициях и отражающаяся/возникающая в сознании реципиентов в ходе интерпретации художественного текста.

Ключевые слова: нарративные трансформации, фикциональная действительность, поток сознания, темпоральные конфигурации.

Yusupova Guzal Rashitovna
PhD, Assistant Professor of Samarkand
State Institute of Foreign Languages
maryamamirovna142013@mail.ru

NARRATIVE TRANSFORMATIONS AS ONE OF THE MAIN TOOLS FOR MODELING NARRATIVE DISCOURSE

ANNOTATION

This article discusses narrative transformations as strategies for modeling literary narrative. The research objectives include justification of the main motivation of the author's intentional deformation of language structures and determination of the principle of semantic compression operation in the process of narrative structures cognitive modeling. The research object is the information encoded by the author in narrative transpositions and reflected / emerging in the minds of recipients in interpreting a literary text.

Key words: narrative transformations, fictional reality, stream of consciousness, temporal configurations.

Большинство американских литературоведов признаёт, что У. Фолкнер при его несомненной гениальности является одним из трудно читаемых, а возможно - и редко читаемым американским классиком. Он самый европейский из всех американских писателей - Европа признала его намного раньше и безоговорочно, чем сама Америка, которая начинает открывать для себя нового У. Фолкнера после присуждения Нобелевской премии в 1949 г.

Проводя параллели между Э. Хемингуэем и У. Фолкнером, следует отметить, что по уровню таланта, на наш взгляд, они равны. У них идентичные картины мира, схожая метафизика. Всем известное произведение Э. Хемингуэя «Старик и море» пересекается в философском плане и основной идеологии с повестью У. Фолкнера «Медведь», которая считается одним из сильнейших произведений зрелого У. Фолкнера. При этом Э. Хемингуэй и У. Фолкнер отличаются друг от друга в эстетических аспектах. Э. Хемингуэй всегда тяготел к лаконизму, а У. Фолкнер - к так называемой избыточности стиля. Основное их различие в том, что у Э. Хемингуэя есть оригинальный - как его потом стали называть критики - «телеграфный стиль», выработанный к концу 20-х годов и впоследствии неизменный, а только усовершенствованный (стилевые эксперименты Э. Хемингуэя остались в черновиках), У. Фолкнер же, в отличие от Э. Хемингуэя, не боялся экспериментировать -, например, с образом времени. В его творческой копилке невозможно найти ни одну книгу с последовательным нарративом. Писатель постоянно пытался использовать новые техники и полностью продумывал с этой точки зрения каждое своё произведение. При этом в стилистическом плане он был настолько многообразен и многогранен, что в его творчестве встречаются произведения, которые написаны прозрачно в традиционном стиле, но также блестяще, как и экспериментальные тексты. Необходимо отдать должное смелости У. Фолкнера, который не боялся поражений на литературном поприще, и даже свой лучший роман «Шум и ярость» он парадоксально называл «моё блестящее поражение».

У. Фолкнер наверняка знал, как можно создать литературный бестселлер, но он жертвовал эффектами в пользу художественного смысла и глубины текста.

Интересно определить место У. Фолкнера в литературе, который, безусловно, входит в классику, но не культовую. Культовая классика более доступна и понятна широкому читателю, а в текст У. Фолкнера необходимо «врастать» в силу того, что в своём творчестве он использует небанальные нарративные стратегии.

Роман У. Фолкнера «The Sound and the Fury», опубликованный в 1929 году, представляет собой весьма смелый художественный опыт. Необычные и на первый взгляд нелогичные модели нарративных конструкций, реализуемых в технике авторского письма, отнюдь не являются самоцелью – просто они наилучшим образом соответствуют той эстетической

задаче, которую поставил перед собой автор. Исследователи отмечают следующую закономерность в моделировании художественного текста активным читателем, который следит за «процессом порождения текста». Фикциональный мир произведения характеризуется, с одной стороны, «стремлением к регулярности...», с другой – намеренной актуализацией потенциальных возможностей языка, т. е. созданием неологизмов на разных уровнях языка» [Кольцова, 2007: 5].

Все, что связано с созданием неологизмов, непосредственно относится и к роману У. Фолкнера «The Sound and the Fury». Особое внимание данной проблематике будет уделено в последующих параграфах главы.

Составляющими моделирования художественного текста являются нарративные трансформации.

Нарративные трансформации – это определенные повествовательные приемы, которые непосредственно зависят не только от жанра, направления произведения, стиля автора и т. д., но и подчинены основной идее автора. Нарративные трансформации возникают как результат переосмысления автором основной идеи произведения, в корне которой, как правило, может лежать определенная ситуация или история [Юсупова, 2017:133].

Рассматривая особенности нарративной трансформации и проблему нарративного конституирования в рамках исследуемого романа, следует выделить такие понятия, как «история» и «дискурс». Существует огромное количество определений данным понятиям, но, на наш взгляд, наиболее продуктивно определение Ц. Тодорова, видевшего в произведении одновременно два аспекта: «Оно есть история в том смысле, что вызывает образ определенной действительности». С этим должны согласиться, это и есть закон построения фикциональной действительности, учитывая индивидуальный дискурс: «... На этом уровне учитываются не нижеследующие события, а способ, которым нарратор нас с ним знакомит» [Todorov, 1966: 126].

Еще раз уточним: в понятие «история» входит всё, что представлено в повествовательном произведении эксплицитно и имплицитно в совокупности, а дискурс – это способ репрезентации [Chatman, 1986: 19]. Следовательно, если речь идет о прозе «потока сознания», то целесообразно применение термина «дискурс», так как он содержит «историю» в трансформированном виде. Важно, как организует трансформацию «истории» автор и как происходит материализация истории в означающем ее тексте.

В силу того, что 3 из 4-х глав исследуемого романа У. Фолкнера «Шум и ярость» представляют собой дискурсы «потока сознания», автор не является и не может быть пространственно-временным ориентиром. В качестве своего рода «компас» может выступать нарратив каждого из персонажей. Следовательно, раскрывая коммуникативную и ориентирующую функции дискурсов героев-братьев, можно воссоздать историю семьи Компсон в том объеме, в котором ее задумал автор.

В проблематике особенно привлекательна сложная модель нарочито созданных автором временных взаимоотношений. Специфика наррации заключается в определенном способе организации излагаемого содержания во времени – темпоральности. При этом ключевыми становятся вопросы о соотношении различных типов темпоральных конфигураций – единичных или повторяющихся событий, состояний, универсалий, а также вопросы о разграничении временных потоков – объяснительно упорядоченной логики развития событий, и иных вариантов интерпретации времени в повествовании.

Интересна концепция «времени» у У. Фолкнера, который считал, что прошлое как категория времени не существует. Прошлое – это не прошлое (*past is never died, it is even past*) т. е. прошлое неподвластно смерти, и оно продолжает существовать в нашем настоящем. Прошлое оказывает фундаментальное влияние на абсолютно все процессы протекающие в нашем настоящем времени. Таким образом, У. Фолкнер проецирует концепцию времени и пространства, заложенную в Библии на исследуемый роман. Обобщенная модель всего человеческого и прошлое, которое всё время продолжается в настоящем. Грех Адама падает на его потомков и продолжает жить во всех остальных частях святописания.

Существует несколько концепций времени: время циклическое и время линейное. Циклическое время зафиксировано в античных мифах, мифах скандинавов и немцев. Т. е. это время, которое повторяет самого себя (змея кусающая свой хвост). В понимании древнего грека Троянская война это не только то, что было, но и то, что будет и всё будет идти по кругу.

Линейная концепция времени появляется немного позже в эпоху средневековья, когда определяющим типом сознания становится сознание христианское. Линейное время – это время, текущее из одной точки в другую точку. Это время можно соотнести с историей христианского мира, где есть начальная точка А – это грехопадение Адама и с этого начинается история всей цивилизации. Грех Адама падает на его потомков и всё это должно закончиться в точке В, которая представляет собой один из конечных пунктов – страшный суд. Именно страшный суд – это не наказание, а награда, потому что все поступки человека будут взвешены и оценены самой высшей инстанцией. При этом в христианстве дойдя до точки В, невозможно вернуться в точку А, потому что не будет нового Адама, не будет грехопадения и т. д. Таким образом, согласно святописанию, самые лучшие представители человечества перейдут в новую духовную фазу существования мира.

Существует ещё одна концепция линейного времени, где из точки А время идёт в бесконечность.

В романе «The Sound and the Fury» У. Фолкнер моделирует все три вида времени.

В нарратив Бенджи, по большей части, вплетено циклическое время. На протяжении всего романа Бенджи плачет это своего рода лейтмотив – гнетущий рёв, который проходит по всему роману. Сам У. Фолкнер пишет о том, что именно в рёве Бенджи отражалась вся безголосая боль вселенной. Для Бенджи мир представляет собой купированный апокалипсис. Его время это бесконечно повторяющееся циклическое время, где нет начала и конца. Он не способен осознать, что Кэдди нет, потому что для него нет ни прошлого, ни настоящего ни будущего, просто циклическая реальность, которая всё время его возвращает к пункту А, которым является Кэдди. Не случайно первая часть романа написана в особом грамматическом времени – это Past Simple, которое олицетворяет прошлое навечно закольцованное из которого нет выхода. Мир Бенджи – это бесконечная боль, его мир никуда не сдвинется и будет заперт в точке бесконечной боли, связанной с утратой сестры Кэдди, которую он тоже не способен осознать. Он лишен самой главной награды, возможности понять, что, вообще, с ним происходит.

Второй герой романа Квентин, тоже изъят из линейного времени, как и Джейсон. Только четвёртая часть совпадает с линейным временем во всех его отношениях. При этом героиня Кэдди существует в пространстве вечности. Кэдди это своего рода метафора, ускользающей от нас жизни. Кэдди почти не описывается в романе, но она создана из всех четырёх элементов природы: вода, огонь, воздух и земля. Она как бы состоит из этих элементов. В тексте много моментов, которые подтверждают данное утверждение. Особенно важно подчеркнуть тот факт, что Кэдди пахнет деревьями, а запах может переноситься только по воздуху, Кэдди пахнет жизнью, Кэдди и есть жизнь т. е. её невозможно убить.

Таким образом У. Фолкнер представляет модели мировидения и мировосприятия. Т. е. можно жить как Бенджи, смотреть, но ничего не понимать или как Квентин наделяя жизнь свойствами абсолютно ей не присущими и требовать от жизни чего-то прагматического как Джейсон, и можно принимать жизнь такой какая она есть как это делает Дилси. В данном контексте Компсоны – это человечество и в частности индивид, с различным мировидением и мировосприятием. Бенджи – это ребёнок, Квентин – подросток, Джейсон-рационально взрослый и очень важно, что в этом романе встречаются часто повторяющиеся имена: Квентин – Квентина, Джейсон старший – Джейсон младший и т. д. У. Фолкнер показывает как имена повторяются из поколения в поколение, т. е. иносказательно человечество заперто в этом циклическом пространстве и времени, и оно оторвано от вечного абсолюта, которое достигается нравственными упражнениями. Кэдди не умирает, она уходит. Человек может умереть, а жизнь - нет, она просто уходит - для тех, кто неправильно понимает жизнь.

Следует заметить, что изменив принцип моделирования нарративных структур исследуемого романа, У. Фолкнер не смог бы выразить свои основные идеи и концепции, если была бы представлена беллетристическая история Кэди Компсон.

Таким образом, время является существенным моделирующим модусом в романе У. Фолкнера «The Sound and the Fury». При этом следует разграничить следующие понятия: время мира и лингвистическое время. Наиболее точное, на наш взгляд, различие данных понятий дает Е. Фарино, который утверждает следующее: «Время мира всегда может быть переведено в объект высказывания и может быть доступно находящемуся в этом мире (персонажу). В романе У. Фолкнера «The Sound and the Fury» дается структурно закреплённое историческое время April 7, 1928; June 2, 1910;» April 6, 1928; «April 8, 1928. Оно закреплено за появлением материальных объектов, за модой и т. д. Это традиционный прием, однако У. Фолкнеру доступно другое, что исследователь именуется «лингвистическим временем», которое: «...исходит от повествующего (говорящего) и может создавать те или иные временные перспективы (точки зрения) на повествуемый мир, т. е. превращать его, например, в настоящий или прошедший, в будущий или в бывший и т. п.» [Фарино, 2004: 363–364]. В исследуемом романе У. Фолкнера превалирует лингвистическое время, так как повествование трех его частей ведется от имени разных персонажей, в технике «потока сознания», и только последняя, четвертая, - от имени самого автора. В последнем случае мы имеем дело с «временем мира».

Время как художественная категория привлекает внимание многих исследователей на протяжении последних десятилетий XXI века [см.: Падучева 1996, Андреева 1996, Genette 2002, Andrews, Squire, Tamboukou, Ricoeur 2008; Тураева З. Я. 1986 и др.]. Романы У. Фолкнера подчеркивают то филигранное мастерство «особого осмысления времени, сложное переплетение разных временных пластов», о чем свидетельствуют структуры его романов, нарушение реальной, «земной» последовательности жизни мотивируются писателем художественной логикой, необходимостью «вторжением в их последовательность, нарушения в повествовании» [Ушникова, 2010: 59–60]. Можно сказать, что все вышеперечисленные особенности категории времени как категории нарратива У. Фолкнер использует в своем романе. Ощущение спутанного времени на макро- и микротекстовых уровнях, резкие переходы к разным временным пластам (в рамках каждой главы и всего романа), «вторжение» в их последовательность, композиционное «вторжение» (главы расположены в нехронологической последовательности) являются нарративными приемами, которые автор вплетает в нить повествования всего романа.

Исследование когнитивно-коммуникативных функций дискурса «потока сознания» с позиций восприятия художественного текста наиболее продуктивно при его членении на нарративные уровни. В. Шмид предлагает следующую модель нарративных уровней: события, история, наррация и презентация наррации [Шмид, 2003: 159–160]. Развивая теорию В. Шмида и проецируя ее на дискурс «потока сознания», а точнее – на примере исследуемого романа У. Фолкнера можно выделить следующую закономерность: механизм понимания текста в нашем случае выстраивается в последовательности: презентация наррации – наррация – события – история.

Список источников:

1. Andrews M., Squire C., Tamboukou M. Doing Narrative Research. – Social Science. – Sage Publications. – 2008. – 159 p.
2. Chatman S. Story and discourse: narrative structure in fiction and film. Cornell University Press, 1986. 277 p.
3. Genette G. Order, Duration, and Frequency // Narrative Dynamics: essays on time, plot, closure, and frames. Edited by B. Richardson. – Printed by Thomson-Shore. – 2002. – P. 25–34.
4. Todorov T. Les catégories du récit littéraire // Communications. 1966. № 8. P. 125–151.

5. Андреева К. А. Грамматика и поэтика нарратива: монография. – Тюмень: ТГУ, 1996. – 192 с.
6. Кольцова Л.М., Лунина О.А. Художественный текст в современной лингвистической парадигме. Учебно-методическое пособие для вузов. – Воронеж, 2007. – 51 с.
7. Тураева З. Я. Лингвистика текста: (Текст: структура и семантика): учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. № 2103 «Иностр. яз.». – М.: Просвещение, 1986. – 127 с.
8. Фарино Е. Введение в литературоведение: Учебное пособие. – СПб.: Издательство РГПУ им. А. И. Герцена, 2004. – 640 с.
9. Шмид В. Нарратология. – М.: Языки славянской культуры, 2003. – 312 с.
10. Юсупова Г. Р. Моделирование нарративных транспозиций в романе У. Фолкнера «The sound and the Fury». Вестник Челябинского государственного университета. 2017. № 3 (399). Филологические науки. Вып. 105. С. 132—138.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

5 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 5, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 5, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000